

O.IBROHIMOV, J.IBROHIMOV, Y.BOTIROV

MUSIQA

4-sinf uchun darslik

2-nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi nashrga tavsiya etgan*

**G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2004**

85.31 971
I-32

Taqrizchilar:

Respublika Ta'lim markazi musiqa va san'at bo'limi boshlig'i muovini, uslubiyotchi
Zumrad A'zamova

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi **Shuhrat Majitov**

Nizomiy nomidagi TDPU musiqa pedagogikasi fakulteti o'qituvchisi **Gulnora Sharipova**

Ibrohimov O. va boshq.

Musiqa: 4-sinf uchun darslik. 2-nashri/Muall.: O.Ibrohimov, J.Ibrohimov, Y.Botirov.
- T.: G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2004. - 112 b.
I.1,2 Muallifdosh.

1030363
391

BBK 85.31ya71

1-I-B 4905000000-29 reja - 2004
M 352 (04) - 2004

ISBN 5-635-02234-0

© O.Ibrohimov, J.Ibrohimov, Y.Botirov.
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa
ijodiy uyi, 2004-y.

2004
A 4141
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston M.

W

SO‘ZBOSHI

Aziz o‘quvchi! Har bir xalqning qadrdon kuy-ohanglari, qo‘shiq-aytimlari, bir so‘z bilan aytganda, milliy musiqasi bo‘ladi. Xalq musiqasi — ko‘p va uzoq asrlik sinovlardan o‘tgan va qalbimizga jo bo‘lgan ma‘naviy boyligimizdir.







Xilma-xil cholg‘ularimiz va ularda sadolanib kelayotgan milliy navolarimiz esa ana shu ma‘naviy boylikning ajralmas qismidir.

Qo‘lingizdagi darslik sizlarni ana shunday ma‘naviy go‘zallik va boyliklardan bahramand etish istagida yozilgan.

Unda xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati va turli bayram marosimlari bilan bog‘liq qo‘shiqlari, milliy cholg‘ulari haqidagi ma‘lumotlar bilan tanishasiz, noyob kuy-qo‘shiqlarni tinglaysiz, ulardan ayrim namunalarni kuylashga o‘rganasiz. Shuningdek, O‘zbekiston kompozitorlarining siz o‘quvchilar uchun ijod etgan qo‘shiqlari bilan tanishasiz!

Mualliflar








Darslikda qo‘llangan quyidagi shartli belgilarni eslab qoling:

-  — Musiqa tinglash.
-  — Aytim mashqlari.
-  — Qo‘shiq kuylash.
-  — Musiqa savodi.
-  — Mustaqil o‘qish.
-  — Savol va topshiriqlar.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT MADHIYASI

Abdulla Oripov so'zi

Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi



ni mah - li - yo ay - la gan di - yor! Bag' - ri

gan di - yor!

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
 Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
 Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
 Shuhrating porlasin, toki bor jahon!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
 Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
 Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
 Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
 Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
 Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

Naqarot:

Oltin bu vodiylar — jon O'zbekiston,
 Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
 Ulug' xalq qudrati, jo'sh urgan zamon,
 Olamni mahliyo aylagan diyor!



Kuz

I CHORAK

O'ZBEK XALQ AYTIM VA CHOLG'ULARI

1—2-DARSLAR. MEHNAT AYTIMLARI

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotining muhim qismini xalq qo'shiq-aytimlari tashkil etadi. Mavzu va shakl jihatdan xilma-xil bo'lgan aytilar o'zida xalqimiz hayoti, turmush tarzini ifoda etadi. Shunga ko'ra ularni «Mehnat qo'shiqlari» («Mehnat aytilari»), «To'y marosim aytilari», «Mavsumiy marosim aytilari» kabi turlarga ajratish mumkin.



Mehnat qo'shiqlari — xalq tomonidan yer haydash, hosil yig'ish, tegirmon tortish, ip yigirish kabi jarayonlarda ijod etilgan va kuylangan.

Bajarilayotgan mehnat turiga qarab mazkur aytimlarni chorvadorlik, dehqonchilik va hunarmandchilik qo'shiqlari guruhlariga ajratish mumkin.


Xususan, dehqonchilik qo'shiqlari ham o'z mavsumiga qarab turlicha bo'lgan. Chunonchi, yer haydash paytida «Qo'sh haydash» (Qo'shchi qo'shig'i) kuylangan bo'lsa, hosilni yig'ib olishda «O'rim qo'shig'i» aytilgan. «Xo'p hayda» qo'shig'i esa xirmon yanchishda kuylangan.

XO'P HAYDA

O'rtacha



Xo'p hay - da - yo xo'p hay - da, xir - mon - ni qil - gil may - da,



Xir - mon - ni qil - ma - sang may - da sen - lar - ga ti - nim qay - da.

Hunarmandchilik qo'shiqlari gilam to'qish, do'ppi tikish, charxda ip yigirayotganda aytilgan.

URCHUQ



E - shik ol - di - da qum - loq, me - ning i - pim yu - ma - loq,



E - lak i - chi - da ke - pak, me - ning ip - gi - nam i - pak.

- ⊙ «Hur Respublikam» qo‘shig‘ini tinglab, undan olgan taassuro-tingizni gapirib bering.



HUR RESPUBLIKAM

• H. Qayumov she'ri

A. Mansurov musiqasi

Allegretto

mf

(chapaklar...)

Erk qu - yo - shi

zi - yo - si - dan top - ding baxt, iq - bol,

Qar - dosh - lik - dan yo' - ling por - loq nur - li is - tiq -

bol

O - na Va - tan gul - la - gay - san


yash - na, top ka - mol, O - na Va - tan ko' r - ki - dir - san

yash - na, top ka - mol: Ko' r - kam di - yor O' z - be - kis - ton


Ser - qu - yosh o' l - kam. > Sen - ga sha - raf, sen - ga ol - qish

hur Res - pub - li - kam. [⊕] Xo - xo, xo - xo, ***f***

xo - xo, xo - xo... (chapaklar...)




Sen - ga sha - raf, sen - ga ol - qish, hur Res - pub - li - kam




ser - qu - yosh o' l - kam... lya - lya - lya - lya, lya - lya,

A...



lya - lya - lya - lya, lya, lya - lya - lya - lya, lya - lya...




lya - lya - lya lya, lya, Sen - ga sha - raf, sen - ga ol - qish,



hur Res - pub - li - kam, ser - qu - yosh o' l - kam



O'z - be - kis - ton, O'z - be - kis - ton, Sen - ga shon,








A... A... A...

▲ Ovoz mashqlarini bajaring.

a)



b)



△ «O‘zbekistonim» qo‘shig‘ini o‘qituvchingiz yordamida notalar bilan kuylashga o‘rganing.

O‘ZBEKISTONIM

Qambar ota she‘ri


L. Mujdaboyeva musiqasi

Allegro moderato


Yakkaxon




O - lam - ga har choq o - chib keng qu - choq



O - chib keng qu - choq Baxt - li ku - lib boq



O‘z - be - kis - to - nim O‘z - be - kis - to nim



O‘z - be - kis - to - nim, o - zod, mus - ta - qil

El - par - var a - hil sa - xiy, o - chiq qo'l

O'z - be - kis - to - nim, O'z - be - kis - to - nim.

Olamga har choq
 Ochib keng quchoq,
 Ochib keng quchoq,
 Baxtli kulib boq
 O'zbekistonim.
 O'zbekistonim,
 O'zbekistonim.


Naqarot:

Ozod, mustaqil
 Elparvar, ahil.
 Saxiy, ochiq qo'l,
 O'zbekistonim.
 O'zbekistonim,
 O'zbekistonim.

Madhiyang tilda,
 Maqoming dilda.
 Bayrog'ing qo'lda,
 O'zbekistonim.
 O'zbekistonim,
 O'zbekistonim.

Naqarot.

Qo'shiq matnida uchraydigan nuqtali notalarga e'tibor bering. Notaning o'ng tomoniga qo'yilgan bitta nuqta shu nota cho'zimini yana teng yarmiga oshirishini unutmang.




$\frac{4}{4}$ o'lchovi.


$\frac{4}{4}$ o'lchovi madhiya, qo'shiq, marsh va boshqa musiqa asarlarida qo'llaniladi. Bu o'lchovning yuqoridagi «4» raqami bir takt ichida to'rtta hissa borligini, quyidagi «4» raqami — bu hissalarining har biri choraktalik cho'zimga teng ekanligini anglatadi. Bunda to'rt hissadan birinchi hissa kuchli, ikkinchi hissa kuchsiz, uchinchi hissa nisbiy kuchli va to'rtinchi hissa kuchsizdir.



$\frac{4}{4}$ o'lchovida turli ritm uzunliklari qo'llansa-da, biroq ularning umumiy yig'indisi har bir taktga to'rt chorakka teng bo'lishi kerak.



$\frac{4}{4}$ o'lchovi ba'zan «c» tarzida belgilanadi.



$\frac{4}{4}$ o'lchoviga dirijyorlik qilganda o'ng qo'l harakati quyidagicha bo'ladi: «bir-i» deganda — qo'l yuqoridan pastga tushiriladi, «ikki-i» deganda — qo'l chapga harakat qiladi, «uch-i» deganda — o'ngga va «to'rt-i» deganda — yuqoriga ko'tariladi.

? Savol va topshiriqlar

1. Mehnat aytimlarining qanday turlarini bilasiz?
2. Mehnat aytimlari qanday vaziyatlarda ijod etilgan?
3. «O'zbekistonim» qo'shig'ining mualliflari kim?
4. «O'zbekistonim» qo'shig'ini nota daftaringizga ko'chirib, she'rni yod oling.

3-DARS. QO'SHIQ

Xalq og'zaki musiqa ijodida mehnat yoki turli marosimlar bilan bog'liq bo'lmagan aytimlar ham yuzaga kelgan. Qo'shiq, lapar, terma, yalla kabi aytim janrlari shular jumlasidandir.

Ular xalq orasida keng yoyilgan bo'lib, ommaviy aytimlar qatoridan o'rin olgan. Masalan, qo'shiq janrini olaylik. Uni kattayu kichik kuylaydi. Qo'shiq odatda, 7 yoki 8 bo'g'inli she'riy bandlar asosida jo'rsozlarsiz yakkaxon (ba'zan ko'pchilik) tomonidan aytiladi.


OH, LAYLI

Chaqqon, quvnoq

Tom bo - shi - da to - g'o - ra, tan - dir to' - la zo - g'o -
ra zo - g'o - ra - ni yo - pol - may (o'r - toq)
Chol - li kam - pir o - vo - ra

Bolalarning «Tomdan tarasha tushdi», «Olatoy», «Chuchvara qaynaydi» singari aytimlari ham qo'shiq janriga misol bo'lishi mumkin.

TOMDAN TARASHA TUSHDI



Tom dan ta- ra - sha tush - di, zul - fim ya - ra - sha tush - di,




a - cham - ga qo'y - gan osh - ni Shod - mon ya - la - qi ich - di.



Shod - man ya - la - qi - ni quv - lab - quv - lab ket - yap - sam, yo'l - dan qam - chin



to - pib ol - dim. Qam - chin - ni a - kam - ga ber - dim, a - kam men - ga ro' -



mol ber - di, ro' - mol - ni qiz - ga ber - dim, qiz men - ga



don ber - di, Don - ni to - vuq - qa ber - dim, to - vuq men - ga tu -



xum ber - di Tu - xum - ni o' - choq - qa qo'y - dim taq et - di,




paq et - di, ik - ki ko' - zim bo - qib qol - di.

DO-MAJOR TOVUSHQATORI

«O'zbekistonim» qo'shig'i do-major tonalligida yozilgan. Demak, uning asosiy tayanch pardasi (tonikasi) «do» tovushidir.

Qo'shiqning major tovushqatori ham shu parda (do)dan boshlab yuqoriga qarab tuziladi:



Yodingizda bo'lsa, major tovushqatorida yarim tonlar III va IV hamda VII va VIII(I) bosqichlar orasida yuzaga keladi.

Shuningdek, I, III va V bosqich tovushlari turg'un (barqaror), II, IV, VI va VII bosqich tovushlari esa noturg'un (beqaror)dir.

? Savol va topshiriqlar

1. «O'zbekistonim» qo'shig'ini yod oling.
2. Quyidagi nota misolining o'lchoviga muvofiq takt belgisini chizing hamda taktning kuchli va nisbiy kuchli hissalariga urg'u (>, >) alomatini qo'ying.



4-DARS. LAPAR

Lapar ikki kishi (yoki tarafma-taraf bo'lgan ko'pchilik) tomonidan aytishuv tarzida kuylanadi. Bunda taraflar birin-ketin, navbatma-navbat «savol-javob» shakliga qurilgan she'riy to'rtliklarni kuylaydilar. Xalqimiz orasida mashhur bo'lgan «Bilaguzuk», «Qoraqosh», «Qilpillama» kabi laparlar shunday aytimlar jumlasini tashkil etadi.

Bolalarning «Oq terakmi, ko'k terak» aytim-o'yini ham lapar xususiyatlariga ega.


Ba'zan laparlarda raqs xarakteriga ega doyra usullari ham qo'llanilib, bu holat goho laparchilarning navbatma-navbat raqsga tushib, aytim kuylashlariga sabab bo'ladi.

BIZDAN SIZGA KIM KERAK?

Ya. Qurbonov she'ri

M. Nasimov musiqasi

O'rtacha tezlikda



mf
Qo' - zi - choq - dek sak - ra - shib, sak - ra - shib,
a tempo
di - kir - di - kir o'y - nay - miz, o'y - nay - miz. Er - kin qush - dek
yay - ra - shib, yay - ra - shib, sho'x - sho'x qo' - shiq kuy - lay - miz,
piu mosso
kuy - lay - miz. Oq te - rak - mi, ko'k te - rak,
rit
biz - dan siz - ga kim ke - rak? Ay - tin - giz, kim ke - rak?

Qizlar: Qo'zichoqdek sakrashib-sakrashib,
Dikir-dikir o'ynaymiz, o'ynaymiz.
Erkin qushdek yayrashib-yayrashib,
Sho'x-sho'x qo'shiq kuylaymiz, kuylaymiz.

Naqarot:

Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Aytingiz, kim kerak?

Bolalar: «Gulchehra kerak»,

Bolalar: Maysazorda jo'sh urib, jo'sh urib,
Gijinglagan toychoqmiz, toychoqmiz.
Bir mayizni qirq bo'lib, qirq bo'lib,
Yeganlardek inoqmiz, inoqmiz.

Naqarot:

Qizlar: «Baxtiyor kerak».

Hamma: Bog'chamizning guliga, guliga,
Mehr qo'yib qaraymiz, qaraymiz.
Baxmal gullar qo'ynida, qo'ynida
Kapalakdek yayraymiz, yayraymiz.

Naqarot.

▲ Aytim mashqlari

The image shows three staves of musical notation for exercises. The first staff is labeled 'a)' and contains a sequence of notes with two accents marked 'v'. The second staff is labeled 'b)' and contains a sequence of notes with one accent marked 'v'. The third staff is labeled 'v)' and contains a sequence of notes with one accent marked 'v'. The notation is in treble clef and 2/4 time.

△ «Shaftoliga savolim» qo‘shig‘ini o‘qituvchingiz yordamida kuylashga o‘rganing.



SHAFTOLIGA SAVOLIM

P. Mo‘min she‘ri

N. Norxo‘jayev musiqasi

Shaf - to - lim, oh, shaf - to - lim, oh, shaf - to - lim, oh shaf - to - lim.

Qi - zi - lu oq, qi - zi - lu oq, qi - zi - lu oq

shaf - to - lim. Ham - ma men - day se - va - di

Pish - gan - da ma - za bo - lim. Shaf - to - lim.

Shaf - to - lim.

Shaftolim, oh, shaftolim, (oh),
Qizilu oq shaftolim.
Hamma menday sevadi,
Pishganda maza bolim,
Shaftolim...

Asta aytib beraqol,
Seni topgan qay olim?
Indamadi shaftolim,
Qiyin ekan savolim,
Shaftolim.


 **Notaga qarab kuylang.**



CHUMCHUQVOY

A. Narzullayev she'ri

S. Anvarov musiqasi



Ga - la bo' - lib ke - lib - san, me - vam shi - rin bi - lib - san



chum - chuq, chum - chuq, chum - chuq - voy, me - va - ni cho' - qi - ma

hoy! Chum - chuq, chum - chuq, chum - chuq - voy,
me - va - ni cho' - qi - ma hoy!

? Savol va topshiriqlar

1. O'tilgan darsni o'qib keling.
2. «Shaftoliga savolim» qo'shig'ini nota daftaringizga ko'chirib, she'rni yod oling.
3. Quyidagi misollarning takt o'lchovlarini aniqlang.

a)
b) v)
g)

5-DARS. YALLA

Yalla ko'pgina xususiyatlari, jumladan, raqsbopligi, ijroda ko'pchilik ishtirok etishi bilan laparga yaqin bo'lgan janrdir. Ammo laparda, eng avvalo, tarafma-taraf aytishuv holati muhim bo'lgani holda, yallada she'r, kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqarordir. Shuningdek, yallalar laparlardan farqli o'laroq, band-

naqarot shaklida bo‘ladi. Bunda yallachi (yakkaxon) raqs-o‘yinga tushib bandlarni kuylasa, naqarotni — ko‘pchilik birgalikda aytadi. Yallalarda raqsbop doyra usullari va turfa cholg‘ulardan iborat ansambl jo‘rligi qo‘llaniladi.

⊙ «Yallama yorim» yallasini tinglang.

YALLAMA YORIM


Qal - dir - g'och qo - ra e - kan, qa - no - ti o -
 la e - kan, yosh - lik - da ber - gan ko'n - gil ay - ril - mas ba -
 lo e - kan. ^{Naqarot} Yal - la - ma yo - rim, yal - lo - la, yal - lo - la -
 shay - lik, be - dod - la - shay - lik, uch - ta, to'rt - ta
 bir bo' - lib, ro - hat - la - shay - lik.

♪ Alteratsiya belgilari.


Alteratsiya so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, o‘zgarish (o‘zgartirish) degan ma‘noni anglatadi.

Musiqada asosiy tovushlar balandligini yarim tonga o‘zgartirish uchun qo‘llaniladigan maxsus belgilar alteratsiya belgilari deb ataladi. Shunday belgilardan biri «diyez» (#) belgisi bo‘lib, u tovushlarni


yarim tonga ko'tarish uchun qo'llaniladi. Diyez belgisi nota oldiga yozib qo'yiladi va shu nota nomiga qo'shib o'qiladi.



Bemol belgisi (\flat) tovushlarni yarim ton pasaytirish uchun qo'llaniladi. U ham nota nomiga qo'shib aytiladi.




Diyez belgisi vositasida ko'tarilgan tovushni yoki bemol belgisi vositasida pasaytirilgan tovushni asl holiga qaytarish uchun bekar (\natural) belgisi qo'yiladi.



? Savol va topshiriqlar

1. «Shaftoliga savolim» qo'shig'ini yod oling.
2. Quyidagi misolda qanday alteratsiya belgilari qo'llanganligini aniqlang.

OLMANI OTDIM



6—7 DARSLAR. O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI

O‘zbek xalq musiqiy cholg‘ularini uch guruhga ajratish mumkin:

- a) Torli cholg‘ular;
- b) Damli (puflama) cholg‘ular;
- v) Zarbli cholg‘ular.

Torli cholg‘ularda tovush hosil etish vositalari turlicha. Jumladan, dutor va do‘mbira sozlari chertib chalinadi. Tanbur torlari ko‘rsatkich barmoqqa kiyiladigan maxsus moslama — «noxun» (ma‘dandan yasaladi) vositasida chertiladi.



Dutor



Do‘mbira



Tanburchi Abdulla Umarov

Qonun sozi ham barmoqlarga kiyiladigan noxunlar vositasida chalinadi.



Abdurahmon Xoltojiev qonunda kuy ijro etmoqda

Qashqar rubobi, afg'on rubobi, ud kabi cholg'ular mezrob (mediator) vositasida chalinadi.



Qashqar rubobi




Afg'on rubobi




Ud

Torli cholg'ularni maxsus kamon vositasida ham chalish mumkin.
Sato, g'ijjak, qo'biz — ana shunday torli-kamonli cholg'ulardir.



Chang cholg'usi ikkita cho'p vositasida urib va chertib (tirnab) chalinadi.





Atoqli san'atkor Turg'un Alimatov satoda kuy ijro etmoqda



G'ulomqodir Ergashev afg'on
rubobining usta ijrochisi



Ud sozining mohir ijrochisi
Rifatilla Qosimov

- ⊙ «Ajam taronasi» kuyini tinglab, qaysi cholg'ularda ijro etilayotganligini aniqlang?

AJAM II (taronasi)

The musical score for 'AJAM II (taronasi)' is written in 2/4 time. It consists of three staves. The first staff begins with a treble clef and a 2/4 time signature, followed by a series of eighth and sixteenth notes. The second staff starts with a 2/4 time signature and contains a sequence of eighth notes. The third staff continues the melody with eighth and sixteenth notes, ending with a double bar line.

«Signal» nomli kuyini tinglab, ijrodagi cholg'ularni aniqlashga harakat qiling.

T. Jalilov musiqasi

Allegretto

The musical score for 'Allegretto' is written in 2/4 time with a key signature of one sharp (F#). It consists of four staves. The first staff begins with a treble clef and a common time signature (C), followed by eighth and sixteenth notes. The second staff starts with a treble clef and a key signature of one sharp, featuring a repeat sign and eighth notes. The third staff continues with eighth notes and rests. The fourth staff concludes the piece with eighth notes and a final double bar line.


Dadil ohang va shaxdam marsh maromida bo'lgan bu kuyning ijodkori O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor To'xtasin Jalilovdir (1896—1966).




To'xtasin Jalilov

To'xtasin Jalilov 1896 yili Andijon shahrida aravakash Jalil ota oilasida tug'ilgan. U bolaligidan musiqani sevgan va dastlab Oppoq Oxun va Muhammad tanburchilardan cholg'uchilik ko'nikmasini olgan. Keyinchalik qo'qonlik Yusufjon changchidan xalq musiqa boyliklarini mukammal o'rganib, ularni idrok etish malakasini hosil etgan. Ustozlarning saboqlari kelajakda T. Jalilov mohir sozanda va ovozi yoqimli ashulachi bo'lib yetishishida, qolaversa, xalqchil kuy, qo'shiq va ashulalar ijod etishida muhim zamin bo'ldi. Ayni paytda, ustaning yangi zamon ruhi bilan sug'orilgan musiqiy asarlari bilan o'zbek bastakorligi jabhasida yangi davr ham boshlandi. T. Jalilovning «Aziz Vatanim», «Ey, hur Vatanim», «To'ylar muborak», «Kokiling», «O'ynasin» kabi qo'shiq va ashulalari xalqimiz orasida mashhur bo'lib ketgan. Shu bilan birga T. Jalilov O'zbekistonda musiqali drama janri shakllanib, rivojlanishida ulkan hissa qo'shgan san'atkordir. Jumladan, usta «Halima», «O'rtoqlar», «Gulsara», «Nurxon», «Tohir va Zuhra», «Ravshan va Zulhumor», «Farg'ona hikoyasi», «G'unchalar», «Alpomish» kabi sahna asarlariga musiqa bastalagan. T. Jalilov jami 40 dan ortiq sahna asarlariga musiqa ijod etgan.

▲ Aytim.





△ Takroriy kuylash. «Maktabim» qo‘shig‘ining mazmuniga e‘tibor berib kuylang.

MAKTABIM

I. Muslimov she‘ri

F. Nazarov musiqasi

Allegretto *p*

O - na ka - bi meh - ri - bon i - lm fan - lar -
ga ma - kon, yay - rab o‘ - qiy - man har on,
qa - d(i)r - do - nim mak - ta - bim! Sen - da fan - lar
xil - ma - xil, on - gim o‘ - sar yil - ma - yil
se - vinch - lar - ga to‘ - lar dil, qa - d(i)r - do - nim
mak - ta - bim! mak - ta - bim!

Ona kabi mehribon,
Ilm-fanlarga makon,
Yayrab o‘qiyman har on,
Qadrdonim, maktabim!


Senda fanlar xilma-hil,
Ongim o‘sar yilma-yil.
Sevinchlarga to‘lar dil,
Qadrdonim, maktabim!


Men dunyoda baxtiyor,
Hech chekmayman alam-zor,
Vatanim mangu gulzor,
Qadrdomim, maktabim!


A'lo o'qishdir burchim,
Sarf etaman bor kuchim,
Ishlayman xalqim uchun,
Qadrdomim, maktabim!

Pauza.

Pauza deb musiqada ma'lum vaqt tinish (to'xtash), jim turish tushuniladi. Tinish muddati turlicha (davomli, o'rtacha davomli, qisqa) bo'lishi mumkin. Bu holatlarni aniq ifoda etish uchun nota cho'zimlariga (ritm uzunliklariga) teng bo'lgan pauza belgilari qo'yiladi.

♩ — butun notaga teng pauza — 

♪ — yarim notaga teng pauza — 


♪ — chorak notaga teng pauza — 

Savol va topshiriqlar


1. O'zbek xalq cholg'ulari nechta guruhga bo'linadi?
2. Torli-chertma cholg'ularni nomma-nom ayting.
3. Torli-kamonli cholg'ular nomini ayting.
4. Torli-urma cholg'uning nomini ayting.
5. «Maktabim» qo'shig'ining mazmunini so'zlab bering.


8—9-DARSLAR. DAMLI VA ZARBLI CHOLG'ULAR

An'anaviy xalq bayramlari, sayil va to'y marosimlarini karnay-surnay sadolariyu doyra-nog'oralarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, bu cholg'ular eng avvalo shodiyona kunlar darakchisi sifatida xalq ma'naviy hayotidan o'rin olgan.



Bulardan tashqari, yana nay, qo'shnay, sibiziq, bulamon, changqobuz kabi damli (puflama) cholg'ular ham bor.







Nay



Qo'shnay



Changqobuz




Bulamon

▲ Aytim. Ovoz mashqlarini bajaring.

a)



b)



△ «Temur bobom — mening bobom» qo'shig'ini kuylashga o'rganing.

TEMUR BOBOM — MENING BOBOM

N. Narzullayev she'ri

S. Jalil musiqasi

♩ Mardona

mf



So - hib - qi - ron Te - mur ho - bom A - mir bo - bom



ja - sur bo - bom. O'z - bek e - lim bax - ti, tax - ti.

Bu- yuk bo- bom mag' - rur- bo- bom Siz - ni
 dil - dan se- var e- lim, yod- ga ol- sam, o'-sar ko'ng- lim
 Aq- lin - giz - ga do- no bo - bom, Bosh e -
 ga di yet- ti iq - lim hey

Sohibqiron Temur bobom
 Amir bobom, jasur bobom.
 O'zbek elim baxti, taxti,
 Buyuk bobom, mag'rur bobom.

Sizni dildan sevar elim,
 Yodga olsam, o'sar ko'nglim.
 Aqlingizga, dono bobom,
 Bosh egadi yetti iqlim.

Men ham jajji yurakdirman,
 Asriy nido, tilakdirman.
 Butun dunyo ko'zi bizda,
 Ona xalqqa kerakdirman!

Hur Istiqlol nomingizni,
 Shavkatingiz, shoningizni,
 Ko'z-ko'z qilib olam aro,
 Tog' ayladi ko'ksimizni.

Elimizda nomingiz yod,
 Dilimizda ruhingiz shod.
 Mustaqillik tongi otdi,
 Vatan ozod, Vatan obod!

Sohibqiron Temur bobom,
 Amir bobom, jasur bobom.
 O'zbek elim baxti, taxti,
 Buyuk bobom, mag'rur bobom!

△ Takroriy kuylash. «Hayroning bo'lay» o'zbek xalq qo'shig'i.

HAYRONING BO'LAY

Bu bog' - cha - da o - li - cha (yo) u bog' - cha - da o - li - cha

qo' - chiq ay - tib o' - ta - di qo' - li - da gul, Xa - di - cha (yo)

qo' - li - da gul, Xa - di - cha. Se - ning hay - ro - ning bo' - lay

do - im ham - ro - hing bo' - lay, do - im ham - ro - hing bo' - lay

Bu bog'chada olisha, (yo)
 U bog'chada olisha,
 Qo'shiq aytib o'tadi,
 Qo'lida gul, Xadicha.

Bu bog'chada maysalar,
 Maysada o'ynasalar,
 «Bular kim?» — deb so'rasalar,
 «A'lochilar!» — desalar.

Naqarot:

Sening hayroning bo'lay,
 Doim hamrohing bo'lay.

Minor tovushqatori

Minor tovushqatori major kabi turg'un va noturg'un bosqich tovushlaridan tarkib topadi. Minorda ham turg'un tovushlar I, III va V bosqichlarga, noturg'un tovushlar esa II, IV, VI va VII bosqichlarga to'g'ri keladi.

lya-minor

I 1 1 1/2 1 1 1 1 1 1/2 1 1 1 1 1

I II III IV V VI VII VIII(I)

Shu bilan birga, minor tovushqatorining major tovushqatori tuzilishidan muhim farqli jihatlari ham bor: minor tovushqatorida yarim tonlar II va III hamda V va VI bosqichlar orasida yuzaga keladi.

? Savol va topshiriqlar

1. O'zbek xalq cholg'ulari nechta guruhga bo'linadi?
2. Torli-chertma cholg'ularning nomini ayting.
3. Damli cholg'ularni nomma-nom ayting.
4. Torli-kamonli cholg'ularni nomma-nom ayting.
5. Zarbli cholg'ular nomini ayting.
6. Bulamon qanday cholg'u?
7. «Temur bobom — mening bobom» qo'shig'ini yod oling.
8. «Temur bobom — mening bobom» qo'shig'ida uchraydigan pauzalarni aniqlang.



Mustaqil o'qing

DOYRA



Doyra.

Qadim-qadim zamonlarda bir mamlakatning savdogarlari savdo qilish uchun safarga chiqishibdi. Yo'llari Cho'li Malikdan o'tar ekan. Yo'l yurib, yo'l yurishsa ham oz emas, mo'l yurishib, Cho'li Malikning qoq o'rtasiga borib qolishibdi.

Bir payt g'amlagan suvlari tamom bo'lib qolibdi. Suv-sizlikdan birin-ketin sulayishib, yotib qolishibdi. Kuch-quvvatlari ketib, turib yurishga aslo

madorlari qolmabdi. Karvonda bir yigit ham bor ekan. U o'zining meshidagi oxirgi suvni safardoshlari og'ziga tomchilab-tomchilab quyibdi. Odamlar bir oz o'zlariga kelishibdi-yu, baribir issiq hamda chanqoqlikdan yo'lga tusha olmabdilar. Shunda boyagi yigit o'ylab-o'ylab, suvdan bo'shagan meshini yorib, aravaning g'ildiragiga tarang qilib tortibdi. Shundan keyin oftobga qaratib qo'yibdi. So'ngra uni taka-tumlata boshlabdi. Ovoziga mahliyo bo'lib qattiqroq taka-tumlatibdi. Bora-bora uni shunchalik ura boshlabdiki, asbobning

ovozi butun cho'lni larzaga keltiribdi. G'ayritabiiy bu ovozdan odamlar ham o'zlariga kelib, g'imirlay boshlashibdi. Ularda kuch-quvvat, xatti-harakat paydo bo'libdi. Ovoz barhandan barhangal o'tibdi, tepalikdan tepalikka ko'chibdi. Oxiri shu cho'lning narigi chetida ketayotgan boshqa karvondagilarning qulog'iga ham yetib boribdi. Karvondagilar: «Karvon halokatga uchrabdi, bo'lmasa bunaqa ovoz chiqarmasdi. Yordamga chaqiryapti, bormoq kerak», — deb ularning oldilariga yetib borishibdi. Suv berib, falokatga uchragan savdogarlarni o'zlari bilan birga savdogal olib keti-



shibdi. Shu-shu doyra «taka-taka-tum, taka-taka-tum» deb ovoz chiqara boshladimi, odamlarda tetiklik, dadillik, jasurlik kayfiyatlari uyg'onarkan.

(«O'zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari» kitobidan.)

¹ Barhan — sahrolarda shamol ko'chirib yuradigan qumtepalar.

IKKINCHI CHORAK

BAYRAM VA MAROSIM QO'SHIQLARI

1-DARS. BAYRAM VA MAROSIM MUSIQASI HAQIDA TUSHUNCHA

O'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida bayram tusini olgan ko'plab marosim, sayil va turli o'yinlar shakllangan. Xususan, beshik to'yi, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, ko'pkari-uloq musobaqa o'yini, dor o'yini kabi tomoshalar va sayillar shular jumlasidandir. Ommaviy bayram va marosimlarning o'tkazilishi aksariyat kech kuz mavsumiga to'g'ri kelgan va u yangi mehnat mavsumi bo'lgan erta bahorga qadar davom etgan. Chunki, aynan shu pallada dehqonlar yig'im-terim ishlarini tugatgach, hordiq chiqarish uchun vaqt ko'proq bo'lgan.







Ushbu ommaviy tadbirlarni o'tkazishda musiqa muhim o'rin tutadi, jumladan, surnay, karnay va nog'orayu doyra cholg'ularidan iborat ansambl sadolari tantanavor yangraydi. Bu cholg'ular bir

vaqtning o'zida ham badiiy tinglov, ham jarchilik vazifasini bajaradi. Karnay va surnay sadolari aholini tantana, bayram boshlanganligidan xabardor etsa, ikkinchi tomondan, ansambl ijrosidagi jozibali kuy-navolar shodlik tuyg'ularini ifoda etadi.

⊙ «Shodiyona» kuylar turkumidan namunalar tinglab, ijrodagi cholg'ularni aniqlang.

M. M. ♩=66-69



▲ **Aytim. Ovoz mashqlarini bajaring.**

a) **Shoshilmasdan**

b)

△ «Yaxshi bola» qo‘shig‘ini bandma-band kuylashga o‘rganing.

YAXSHI BOLA

P. Mo‘min she‘ri

N. Norxo‘jayev musiqasi

Moderato graciso

Ham - ma joy - ga ya - ra - sha - di yax - shi bo - la
 yax - shi bo - la uy i - shi - ga qa - ra - sha - di
 yax - shi bo - la yax - shi bo - la
 o‘y - nab yu - rib se - vi - na - di o‘z - o‘ - zi - dan
 yax - shi - li - gi se - zi - la - di
 1. yuz - ko‘ - zi - dan, 2. yuz - ko‘ - zi - dan, yuz - ko‘ - zi - dan.


Koda

Ya - shay - ver - sin ham - ma joi - da yax - shi bo - la, yax - shi bo - la
 Kel - ti - ra - di el - ga foy - da yax - shi bo - la, yax - shi bo - la.

Hamma joyga yarashadi,
 Yaxshi bola — yaxshi bola.
 Uy ishiga qarashadi,
 Yaxshi bola — yaxshi bola.
 O‘ynab yurib sevinadi
 O‘z-o‘zidan-o‘z-o‘zidan,
 Yaxshiligi seziladi
 Yuz-ko‘zidan-yuz-ko‘zidan.

Maktabidan qolmaydi kech,
 Yaxshi bola — yaxshi bola.
 Ikki baho olmaydi hech,
 Yaxshi bola — yaxshi bola.
 Ish buyursang deydi kulib:
 «Xo‘p bo‘ladi», «xo‘p bo‘ladi»,
 Sheriklari — o‘rtoqlari
 Ko‘p bo‘ladi, ko‘p bo‘ladi.



Yashayversin hamma joyda,
 Yaxshi bola — yaxshi bola.
 Keltiradi elga foyda,
 Yaxshi bola — yaxshi bola.

 **Quyidagi misolni 2/4 takt o‘lchoviga dirijyorlik qilib, notalar asosida kuylang.**

JIYDA


S. Po‘latov she‘ri

X. Po‘latov musiqasi



Savol va topshiriqlar

1. «Yaxshi bola» qo‘shig‘ining asosiy tayanch pardasi (tonikasi)ni aniqlang.
2. «Yaxshi bola» qo‘shig‘ining nota yozuvida uchraydigan quyidagi belgilar nimani bildiradi?



3. She'rni yod oling.

2-3-DARSLAR. ALLA AYTIMLARI

Xalqimizda mavjud odatga ko'ra, oilaga yangi tug'ilib kelgan to'ng'ich farzand sharafiga beshik to'yi marosimi o'tkaziladi hamda shu vaqtdan e'tiboran chaqaloq hayotida muhim bo'lgan 2—3 yillik «beshik davri» boshlanadi. Ona chaqaloqni uxlatish maqsadida beshikni tebratib, maxsus qo'shiq kuylaydi. «Beshik vaziyati» bilan aytiladigan bunday aytim «alla» yoki «beshik qo'shig'i» deb ataladi. Onalar ijodi bo'lgan bu aytimlarda bolani ovutishga qaratilgan so'z-iboralar, shuningdek, onaning farzandi haqidagi orzu-niyatlari bayon etilgan to'rtliklar badiha etiladi. «Alla eshitgan bola kelajakda o'z ota-onasiga mehrlil, iymonli, e'tiqodli, ona-tuproq'iga, el-yurtiga sodiq, vatanparvar, insonlarga hamdard bo'ladi»¹.

☉ «Alla» aytimlarini tinglab, ularni tavsiflab bering.

Al-la ay - tay jo - nim
Al-la ay - tay jo - nim

bo - lam qu - loq sol - gin al - la
bo - lam shi - rin qo' - zim al - la

Shi - rin al - lam ting - lab as - ta
sen qu - von - chim if - ti - xo - rim

ux - lab qol - gin al - la
ko' - rar ko' - zim al - la

¹ Asrlarga tengdosh qo'shiqlar. Tuzuvchilar: Eshonqulov J., Abdurahmonov Y., Toshkent. 1991, 5-bet.

Alla ayimlari bastakor va kompozitorlar tomonidan ham ijod etiladi. Jumladan, avstriyalik kompozitor Wolfgang Amadey Mosartning «Alla» aytimi mashhur boʻlib, u oʻzbek tilida shunday kuylanadi:


ALLA

V. Mosart musiqasi

Shoshilmasdan



Yot bo - lam, ux - la qo' - zim.




Uy - lar - da o'ch - di chi - roq

mp



Ux - lar a - sal a - ri - lar



Ux - lar ba - liq - lar tinch - roq



Ko'k - da oy yar - qi - ray - di



de - ra - za - dan qa - ray - di



Ko'z - la - ring yum - gin qo' - zim

yot qu - von - chim, qun - du - zim Al -

la al - la

Quyidagi kuy namunalarini notaga qarab ayting. Do-major — lya-minor.

FRANSUZ XALQ QO'SHIG'I

Xursandlik ila do-major

O'ZBEK XALQ KUYI

O'rtacha tez lya-minor

«Alla» haqida rivoyat

Rivoyat qilishlaricha, jannatdan quvilgan Odam Ato bilan Momo Havo bir-birlariga ko'ngil qo'yishib, egizak ko'rishibdi. Xudoning



bu marhamatidan boshi osmonga yetgan Odam Ato shikorga¹ ketibdi. Hammayoq osoyishta bo'lib, yer yuzidagi bu jimlikni faqatgina ikki chaqaloqning betoqat yig'lagan ovozi buzar ekan. Momo Havo nima qilishini bilmay turganida uning yuragidan qandaydir bir jozibali alla qo'shig'i kelgan ekan:

¹Shikor — ov.

Alla, bolam, baxtiyor,
 Har ishning ham vaqti bor.
 Otang ketgan shikorga,
 Alla, bolam, alla-yo.

Aytishlaricha, yer yuzida paydo bo'lgan birinchi go'dakka aytilgan alla mana shunday boshlangan ekan... Yer yuzidagi jamiki qo'shiqlar ona allasidan boshlangan. Biz tinglab orom olayotgan eng yaxshi qo'shiqlarning kelib chiqishi ham ona allasiga borib taqaladi.

(«Asrlarga tengdosh qo'shiqlar» kitobidan.)

△ «Xat yozaman do'stinga» qo'shig'ini bosqichma-bosqich kuylashga o'rganing.

XAT YOZAMAN DO'STINGA

P. Mo'min she'ri

K. Kenjayev musiqasi

mf

Qa-lam o - lib qo' - lim - ga ya - qin tu - tib ko'ng - lim - ga

kel - ti - rib ko'z o'n - gim - ga ma' - no iz - lab so' - zim - ga

xat yo - za - man do's - tim - ga xat yo - za - man do's - tim -

ga xat yo - za - man do's - tim - ga

Qalam olib qo'limga,
Yaqin tutib ko'nglimga,
Keltirib ko'z o'ngimga,
Ma'no izlab so'zimga,
Xat yozaman do'stimga.


O'qishlarim soz deyman,
Bu bilganim oz deyman,
Vaqtida xat yoz deyman,
Top-toza qog'ozimga,
Xat yozaman do'stimga.

U yurtimda, chet elda,
Tog'da, o'rmon, sohilda,
Maqsad birdir ko'ngilda,
Yaqin tutib o'zimga,
Xat yozaman do'stimga.

Xatim yurak ko'zgusi,
Yaxshilikdir orzusi,
Yashar do'stlik tuyg'usi,
Shayman hurmat-ta'zimga,
Xat yozaman do'stimga.

? Savol va topshiriqlar

1. Alla haqida nimalarni bilasiz?
2. 2/4 takt o'lchovida qancha hissa bor?
3. 3/4 takt o'lchovida-chi?
4. Quyidagi nota misollarida yarim tonlar qaysi tovushlar orasida joylashganligini aniqlang:



5. «Xat yozaman do'stimga» qo'shig'ini yod oling.


4—5-DARSLAR. TO‘Y MAROSIMI QO‘SHIQLARI

To‘y — «o‘z nomi bilan yaqin do‘st-yor, qarindosh-urug‘ diydoriga, shirin-shirin taomlarga, yaxshi kuy va qo‘shiqqa, kurashu ko‘pkari tomoshasiga, bayram shodiyonasiga, kulgi va quvonchga to‘yishdir»¹.

To‘y marosimlarida musiqa muhim o‘rin tutadi. Bunda ham cholg‘u musiqa, ham qo‘shiq aytimlari namoyon bo‘ladi. Jumladan, to‘y marosimlarida karnay, surnay va nog‘oralardan iborat ansambl ijrosida sadolangan (taralgan) kuylar aholiga to‘y boshlanganligidan xabar beradi va, ayni paytda, tinglovchida tantanavor bayram kayfiyatini uyg‘otadi hamda raqs o‘yinlariga chorlaydi va unga jo‘r bo‘ladi.

To‘ylarda, odatda, «Navo», «Navo Charxi», «Begi Sulton» singari kuylar ijro etiladi.

⊙ «Surnay navosi» kuyini tinglang.



Kelinni kuyovnikiga kuzatib borish vaqtida ayollar tomonidan aytiladigan «Yor-yor»lar nikoh to‘yi marosimining eng go‘zal go‘shiq namunasidir. Nikoh to‘yining ertasiga ertalab esa kuyovning ota-onasi, qarindosh-urug‘lari va qo‘ni-qo‘shnilariga kelin nomidan «kelin salom» marosimi o‘tkaziladi. Maxsus «kelin salom» aytuvchi tomonidan ma‘lum kuy-ohanglarida salom aytib turiladi, kelin esa egilib salom qiladi.

¹ Mahmud Sattor. «O‘zbek udumlari». T. Fan. 1993 yil. 113-bet.



«Kelin». *Musavvir Ortiqali Qozoqov asari.*

⊙ Yor-yorlardan namunalar tinglang.

YOR-YOR

Hay-hay o'-lan, jon o'-lan(o) ke-lin kel-di,
 yor - yor - ro ke-lin kel - di, qo' - shiq
 bi-lan (o) to'y bi lan(o) ke-lin kel-di

YOR-YOR

Hay-hay o'-lan jon o'-lan ke-lin kel-di yor-yor, yor-yo-ro,
 ke-lin kel - di yor - yor, qo' - shiq bi - lan,
 to'y bi - lan ke - lin kel - di, yor - yor.

🎵 Notaga qarab kuylang.

MUNOJOT

sol-major

Hurmatli o'quvchilar! Siz notaga qarab mashq qilgan musiqa namunasi xalqimiz tomonidan qadimdan sevib kuylangan «Munojot» kuyining boshlanish qismidan olingan.

O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor Imomjon Ikromov (1891 — 1980, Toshkent) ushbu kuyga hazrat Alisher Navoiyning «Sarvi gulro' kelmadi» g'azalini bog'lab, uning ashula yo'lini ijod etgan.

Bu ashula shunday boshlanadi:



Imomjon Ikromov

MUNOJOT
(Sarvi gulro' kelmadi)

A. Navoiy g'azali

I. Ikromov musiqasi

M. M = 100—104

Ke - cha kel - gum - dur de - bon ul
sar - vi gul - ro' kel - ma - di - yo'

Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, ushbu «Munojot» ashulasi Siz notaga qarab kuylagan «Munojot» parchasidan ma'lum darajada farq etadi. Jumladan, ashula yo'lining kuyi $\frac{4}{4}$ takt o'lchovida emas, balki $\frac{2}{4}$ takt o'lchovida berilgan.

I. Ikromov «Cho'li Iroq» va «Ajam» nomli mumtoz kuylarga ham A. Navoiy g'azallarini bog'lab, ularni xalqimizga taqdim etgan atoqli san'atkordir. Shu bilan birga I. Ikromov tomonidan ijod etilgan «So'lim», «Indamadi», «Gul teraman saralab», «Topilmas», «Qoshi qarosini ko'ring», «Ul qaro ko'z», «Kim desun» kabi ko'plab qo'shiq va ashulalari xalqimiz qalbidan mustahkam o'rin olgan.

VATAN MEHRI

J. Jabborov she'ri

I. Ikromov musiqasi

Va - tan, sen, be - ba - ho gul - bog' - ni sev - dim,


yash - na - gan sha - har - lar, qish - loq - ni sev - dim,

Su - vi shar - bat - shi - rin bu - log' - ni sev - dim,

bax - tim - ga nur soch - gan chi - rog' - ni sev - dim.

Qa - di(i)r - don yo - ru do'st, o'r - tog' - ni sev - dim

Sen - da xalq - lar




o - zod, o' - zing mu - zaf - far g'a - la - bang
 us - ti ga g'a - la - ba za - far. Ja - hon - ga
 tar - qa - lar sen - dan xush - xa - bar bax - tim - ga
 nur - soch - gan chi - rog' - ni sev - dim,
 qa - d(i)r - don yo - ru do'st, o'r - tog' - ni sev - dim.

Vatan, sen, bebaho gulbog'ni sevdim,
 Yashnagan shaharlar, qishloqni sevdim.
 Suvi sharbat-shirin bulog'ni sevdim,
 Baxtinga nur sochgan chirog'ni sevdim,
 Qadrdon yoru do'st, o'rtog'ni sevdim.
 Senda xalqlar ozod, o'zing muzaffar,
 G'alabang ustiga g'alaba, zafar.
 Jahonga tarqalar sendan xushxabar,
 Baxtinga nur sochgan chirog'ni sevdim,
 Qadrdon yoru do'st, o'rtog'ni sevdim.


? Savol va topshiriqlar

1. Qanday to'y qo'shiqlarini bilasiz?
2. Quyidagi nota misollarida yarim tonlar qaysi tovushlar orasida joylashgan?


Sol major



Mi minor



3. Quyidagi misollarning takt o'lovlarini aniqlang:



6—7-DARSLAR. XALQ TOMOSHALARI MUSIQASI

Qadimdan xalq sayillari, bayramlari va to'y marosimlarida uloqko'pkari, dor o'yini, ot o'yini, masxarabozlik, qiziqchilik singari tomoshalar o'tkazib kelingan. Bu tomoshalarda surnay, karnay va nog'oralardan iborat ansambl ijrosida musiqa sadolari yangragan. Har bir tomoshaga oid maxsus ijro etiladigan kuylar ham yuzaga



«Ko'pkari». Musavvir Mannon Saidov.



kelgan. Masalan, dor o'yini va qo'g'irchoqboz tomoshalari «Dorbozi», «Duchava», «Charx» nomli kuy sadolari ostida ko'rsatilgan.

Masxaraboz va qiziqchilarning chiqishlarida, shuningdek, «Ot o'yin»larida «Az-az», «Yuz bir», «Oteroni», «Norim-norim» kabi kuylar yangragan.

Shu bilan birga xalq sayillari, bayramlari va to'y marosimlarida qo'shiq va ashulalar ham kuylangan.

⊙ «Charx» nomli kuyni tinglab, uni tavsiflab berishga harakat qiling.

CHARX II

⊙ «Norim-norim» kuyini tinglang.

NORIM-NORIM

Musical score for 'Norim-norim' in 2/4 time, consisting of three staves of music.

△ «Archa qo'shig'i»ni kuylashni o'rganing

ARCHA QO'SHIG'I

A. Bo'riboev she'ri

A. Muhamedov musiqasi

mf Shoshilmasdan

Musical score for 'Archa qo'shig'i' in 2/4 time, featuring a vocal line with lyrics and a piano accompaniment. The lyrics are: Bay - ra - mi - miz ko'r - ki - san, sa - lom, ar - cha - jon! Sen bu - gun yan - gi yil - ga, eng a - ziz meh - mon. Qi - shin, yo - zin bir xil - da, barg - la - ring ya - shil se - ni ko'r - sak ba - hor - dek, quv - nay - di ko'n - gil Bay - ra - mi - miz ko'r - ki - san, sa - lom ar - cha - jon Sen bu - gun yan - gi yil - ga eng a - ziz meh - mon.

Bayramimiz ko'rkisan,
 Salom, archajon!
 Sen bugun yangi yilga,
 Eng aziz mehmon.
 Qishin, yozin bir xilda.
 Barglaring yashil.
 Seni ko'rsak bahordek,
 Quvnaydi ko'ngil.


Qutlab yangi yil bilan
 Qorbobo turar.
 A'lochi o'rtoqlarga
 Sovg'alar berar.
 O'zbek, qozoq, rus, latish,
 Davra quramiz.
 Sen bilan yangi yilning
 Zavqin suramiz.

Naqarot:

Shoxlaringga ildik biz.
 Turli o'yinchoq.
 Ayiq, tulki, olmaxon,
 Qo'ng'ir qo'zichoq.
 Rang-barang lampochkalar
 Jilvali yonar.
 Oppoq, momiq paxtamiz
 Nurdek tovlanar.


6/8 o'lchovi

Bu o'lchovning yuqoridagi «6» raqami bir takt ichida oltita hissa borligini, quyidagi «8» raqami — bu hissalamning har biri sakkiztalik cho'zimiga teng ekanligini bildiradi.




Olti hissaliq ushbu o'lchovga dirijyorlik qilganda o'ng qo'l harakati quyidagicha bo'ladi (chizmaga qarang):

Ijro sur'ati tez bo'lgan qo'shiq va boshqa musiqa asarlarida 6/8 takt o'lchoviga xuddi oddiy ikki hissali o'lchovdagi kabi dirijyorlik qilinadi. Bunda har bir qo'l harakatiga uchtadan hissa to'g'ri keladi.



OLMA ATIRJON



? *Savol va topshiriqlar*

1. «Beshik vaziyati» bilan bog'liq kuylanadigan aytimning nomi?
2. «Yor-yor» qo'shig'i qaysi marosimda aytiladi?
3. «Dorbozi» cholg'u kuyi qaysi vaziyatda ijro etiladi?



Mustaqil o'qing

Afg'on rubobi haqida rivoyat

Buxoro xonining husnda tengi yo'q bir qizi bor ekan. Ammo u uyqusizlikka uchragan, kasalvand ekan. «Qizim o'lib qolmasmikin?» deb xon kunu tun g'amda ekan. Qaratmagan tabibi, boqtirmagan kuchnochi qolmabdi. Baribir qiz tuzalмай, ahvoli kundan-kunga battarlashaveribdi. Qizni ertalab labihovuz oldiga chiqarib qo'yishar, kechasi qasr ichiga olib kirishar ekan. Xonning qizi labihovuz oldiga o'ltirib bog'da yurgan tovuслarga tikilib xayol surgani-surgan ekan. Ularni juda yaxshi ko'rar ekan-da. Tovuslar patlarini yoysa ko'ngli yorishar, o'yinga tushishsa quvnar ekan. Doim: «Shu tovuслar so'zlashib, qo'shiq aytib, raqsga tushishsa-ku?» der ekan. Buxoroda yashovchi bir afg'on yigiti bundan xabardor bo'lib qolibdi. U qo'li gul usta bo'lib, hatto quruq yog'ochga ham «jon kiritib» yuborarkan. Hunarini ishga solib, tovusga o'xshagan bir asbob yasabdi. Uni olib xonning saroyiga boribdi. Xonga ro'baro' bo'lib: «Men qizingizni tuzataman», — debdi. Xon rozi bo'libdi. Afg'on yigit boqqa kirib, qizning yoniga kelibdi-da, o'zi yasagan tovussimon asbobni chala boshlabdi. Asbobning goh hazin, goh mungli, goh jo'shqin kuyiga berilib ketgan xonning qizi asta-asta uyquga ketibdi. «Uyqu dardga davo, bemorga shifo», deb bejiz aytishmagan. Afg'on yigit asbobini chalaveribdi, xonning qizi maza qilib uxlayveribdi. Bora-bora afg'on yigiti uni yaxshi ko'rib qolibdi. Qizga mehri oshgan sari qo'lidagi asbobi yanada boshqacharoq



«Xayol». Musavvir Alisher Mirzo.

bo'zlayveribdi. «Qizim nima bo'ldiykin, bir xabar olay», deb boqqa chiqqan xon qizining uyqu og'ushida, yonidagi afg'on yigiti esa qo'lidagi asbobni bo'zlatayotgan holda ko'rib: «Tag'in qizimning boshini aylantirib qo'ymasin», deb o'ylab, yigitni bog'dan haydab chiqaribdi. Shu tariqa qiz tuzalib ketibdi. Afg'on yigitini ko'p yo'qlatibdi, topolmabdi. Xon qizining tuzalib qolganini ko'rib, o'ziga o'xshagan xonning o'g'liga katta to'y qilib berib yuboribdi.

Afg'on yigiti qizning ko'yida o'zi yasagan asbobni chalib yuraveribdi. U chalganda uyqusizlar uyquga ketibdi, kasallar tuzalibdi. Muhabbati bevaqt xazon bo'lganlarning dardiga dard qo'shibdi.

Shu-shu afg'on yigiti yasagan asbob «Afg'on rubobi» deb ataladigan bo'libdi.

(«O'zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari» kitobidan.)

UCHINCHI CHORAK MAVSUM QO'SHIQLARI

1—2-DARSLAR. MAVSUM VA MAROSIM QO'SHIQLARI

O'zbek xalqining yil oylari va fasllariga bog'liq holda o'tkaziladigan an'anaviy marosim va udumlari bor. Masalan, go'zal bahor faslida Navro'z bayrami keng nishonlangan, lola sayillari hamda dehqonchilik mehnatining boshlanishi bilan bog'liq «Shoh moylar» marosimi o'tkazilgan. Shuningdek, kuz faslida yig'im-terim ishlari olib borilgan bo'lsa, qish faslida gap-gashtaklar uyushtirilgan. Xalq og'zaki musiqa ijodida ana shu kabi mavsum — marosimlarga bevosita (yoki bilvosita) bog'liq qo'shiqlar ham yuzaga kelgan.



Toshkentda qish

Qish fasli gap-gashtaklari



Xalq baxshisi
Umarqul Po'ltan o'g'li


Ma'lumki, qish faslida dehqon ham, yer ham dam olgan. Ana shu kezlarda mahalla ahli, qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'lar, tengqur bolalar to'planishib gap-gashtaklar o'tkazishgan. Bunday gap-o'yinlar aslida «qish kunlariga mo'ljallangan bo'lib, uzun qish kechalarini obod, mazmunli qilish, ko'ngil yozish uchun tashkil etilgan»¹.

Gap-gashtaklarda mehmondorchilik, qiziqarli suhbatlar, turli o'yinlar bilan birga yana she'rlar o'qilgan, qo'shiq, ashula va yallalar aytilgan, baxshilar ijrosida terma va dostonlar tinglangan.


Baxshi — bu «Alpomish», «Go'ro'gli», «Avazxon» kabi dostonlarning ijodkori va ijrochisi bo'lib, u, odatda, dostonlarni ham so'zlab, ham kuylab beradi. Do'mbira cholg'usi (ba'zan qo'biz, dutor) esa jo'rnavoz soz sifatida qo'llaniladi.

◉ «Mirzadavlat» cholg'u kuyini tinglab, uning takt o'lchovini hamda ansambl tarkibidagi cholg'ularni aniqlang.

MIRZADAVLAT I




¹ Mahmud Sattor. O'zbek udumlari. Toshkent. Fan. 1993, 122-bet.



▲ Aytim mashqlarini bajaring.

a) Shoshilmasdan



△ «Sovuq kimni izlaydi?» qo‘shig‘ini kuylashga o‘rganing.



SOVUQ KIMNI IZLAYDI?

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

So - vuq kim - ni iz - lay - di
Sha - mo - li g'iz - g'iz - lay - di.
Bi - la - siz - mi, so - vuq - dan kim ku - lib, kim yig' - lay -
di. Bo'l - sa lan - ju dan - ga - sa
tug - ma - si - ni taq - ma - sa, So - vuq tez - da
yi - qa - di, Un - dan g'o - lib chi - qa - di.

Sovuq kimni izlaydi?
Shamoli g'iz-g'izlaydi.
Bilasizmi, sovuqdan
Kim kulib, kim yig'laydi?

Naqarot:

Bo'lsa lanju dangasa,
Tugmasini taqmasa,
Sovuq tezda yiqadi,
Undan g'olib chiqadi.

Kiyinolib, shaylanib,
Yursa o'ynab, aylanib,
Bo'shshamsa kim agar
Sovuq unga bo'yin egar.

Naqarot:

Quvontirib yanada,
Uchiradi chanada.
Bo'ling deya, qahramon
O'ynatadi qorbo'ron.


Naqarot.

? Savol va topshiriqlar

1. «Sovuq kimni izlaydi?» qo'shig'ida qanday alteratsiya belgilari uchraydi?
2. Qo'shiqni nota daftaringizga ko'chirib yozing va she'rni yod oling.
3. Quyidagi nota misolining takt o'lchoviga muvofiq nota tayoqchalarini (shtil) aniqlang.

OLTIN DIYOR

X. Po'latov musiqasi



3-DARS. BASTAKOR KOMILJON JABBOROV

O'zbekiston xalq artisti, sozanda va bastakor Komiljon Jabborov (1914, Andijon —1975, Toshkent) milliy musiqamiz rivojiga katta hissa qo'shgan san'atkordir. U bolaligidan xalqimizning qadimiy kuy-ohanglarini qalbiga jo etdi. Dastlab akasi Mo'minjondan g'ijjak chalishni o'rgana boshladi. Keyinchalik ustozlari — Ro'zimat Isaboyevdan chang, g'ijjak va tanbur, Sobirjon Siddiqovdan g'ijjak va Muhiddinhoji Najmiddinovdan dutor mashqini oldi. Voyaga yetgach, K. Jabborov musiqqa san'atining ham ijrochilik, ham ijodkorlik



Komiljon Jabborov

sohalarida samarali faoliyat ko'rsatdi. Xususan, u g'ijjakda «Iroq», «Navo», «Dugohi Husayn» kabi murakkab tuzilishli mumtoz kuylarni yuksak mahorat bilan ijro etgan. Tanbur va dutor cholg'ularida ham mumtoz asarlarni o'ziga xos betakror uslubda chalgan. Shu bilan birga K. Jabborov musiqali drama, kuy, qo'shiq va ashula ijod etish sohasida barakali mehnat qildi. Jumladan, kompozitor Sulton Hayitboyev bilan hamkorlikda «G'ulja ustida nur», kompozitor Doni Zokirov bilan hamkorlikda «Nodira», «Mening jannatim» nomli dramalarga musiqa bastaladi. Shuningdek, o'zining sermazmun va jozibali kuy-ohanglari bilan elga manzur bo'lgan ko'plab qo'shiq va ashulalar ijod etdi. «Obod o'lkam», «Toshkent piyolasi», «Diyorimsan», «Shifokorlar», «Sog'indim», «Muhtalo bo'ldim senga», «Assalom», «Vatan», «Ko'zlaring», «Ey pari», «Etmasmidim» shular jumlasidandir. Masalan, shoir Habibiy so'ziga bastalagan dilrabo kuyli «Diyorimsan» ashulasi xalqimiz orasida mashhur bo'lib ketgan. Mazkur ashula shunday boshlanadi:

DIYORIMSAN

Habibiy so'zi

K. Jabborov musiqasi

M.M. ♩=144-152

Ey o - zod go' - zal

o' - kam (jo - ni - mey), hur - mat - li di - yo -

rim - san, ko'p zax - mat i - la

top - gan (jo - ni - mey) bax - tim - sa - nu yo -

rim - san. Jo - nim ka - bi as -
 ray - man, no - mus i - la o - rim - san.
 Ko'ng - lim o - chi - lur boq - sam (jo - ni - mey),
 o - ro - my qa - ro - rim - san.

Sol-major.

Sol-major tonalligining asosiy tayanch pardasi (tonikasi) «sol» tovushi boʻlib, kalitoldida bitta fa-diyez belgisi bor. Sol-major tonalligida yarim tonlar «si» va «do» (III—IV bosqich) va fa-diyez-sol (VII—I bosqich) tovushlari orasida hosil boʻladi. Qolgan bosqich (I—II, II—III, IV—V, V—VI, VI—VII) tovushlarining har biri oʻzaro I ton oraligʻida joylashgan.

I II III IV V VI VII I-(VIII)

Shuningdek, I—III—V bosqich tovushlari (sol-si-re) turgʻun, II—IV—VI—VII bosqich tovushlari esa noturgʻundir.

Savol va topshiriqlar

1. Sol-major tonalligida nechta kalitoldi belgisi bor?
2. «Diyorimsan» ashulasining ijodkori kim?
3. «Diyorimsan» ashulasini notalar asosida kuylang.

4—5-DARSLAR. BAXSHI JASORATI



— Darvozani ochamiz, mo‘r-malaxday¹ bostirib kelgan sahroyilarga endi bas kelib bo‘lmaydi. Darvozani ochmasak, shaharni yo suvga botiradi, yo o‘t qo‘yib, kunpayakun² qiladi, — debdi Toshkent biyi³ balo-qazoday yopirilib, qal‘a devorlarini buzayotgan dushmanlardan qo‘rqib ketib.

— Biyimiz to‘g‘ri aytadilar, kalitlarni topshirmoq lozim. Ular ko‘pchilik, biz ozchilikmiz. Hali-zamon bostirib kirib, qirg‘inbarot qilishadi, — deb uning gapini ma‘qullabdi o‘ng qo‘l yordamchi.

Boshqalar ham unga qo‘shilishibdi. Shundan so‘ng Toshkent oqsoqollari maslahatni bir joyga qo‘yib, darvozani dushmanga ochishga qaror qilishibdi. Shu payt ostonada juldurvoqi kiyimli, yuzko‘zi qon bir yigit paydo bo‘libdi.

— Yo‘q, darvozani ochmaymiz. Bosqinchilar shaharga kirsam, uni vayron qilib, o‘g‘illarimizni qulga, qizlarimizni cho‘riga aylantiradi. Xo‘p desangizlar, men bir o‘zim bosqinchilarni shum niyatlaridan voz kechtirib, izlariga qaytarib yuboraman, — debdi u.

— Qanday qilib?! Shunday dushmani-ya! — deb hayron bo‘lishibdi yig‘ilganlar.

¹ Mo‘r-malaxday — qumursqa va chigirtka kabi.

² Kunpayakun — yanchilib, yo‘q bo‘lib ketmoq.

³ Biy — bek (mansabdor shaxs), shahar hokimi.

Biy ham:

— Bo‘lmagan gap?! Shuncha yigitlar daf etolmagan dushmani bir o‘zing qanday daf eta olarding?! — deb hayron bo‘libdi. — Bir o‘zi dushmanga bas kela olmaydi. Kalitni dushmanlar qo‘liga topshirmoq lozim.

Hammayoqdan shovqin-suron ko‘tarilibdi. Shunda haligi yigit:

— Jangda men ham qatnashdim. To‘g‘ri, yovni qilich bilan daf etolmadik, eta olmaymiz ham. Ammo men baxshiman. Qani, do‘mbiramni ishga solay-chi? Balki qilich daf etolmaganni do‘mbira daf etar, — debdi.

Biy boshliq oqsoqollar o‘ylab-o‘ylab, oxiri baxshining taklifiga rozilik bildirishibdi. Baxshi yigit do‘mbirasini qo‘liga olib, qo‘rg‘onning eng baland joyiga chiqib, dushman turgan tomonga qarab olib, do‘mbirasini chala boshlabdi... Yov-yovlab yurganlardan biri o‘q-yoyi bilan uni qulatmoqchi bo‘lgan ekan, sarkardasi yo‘l qo‘ymabdi.

Baxshi yigitga qarab:

— Hoy, yigit, bu yoqqa tush, — deb baqiribdi.

Baxshi yigit qo‘rg‘onning tashqarisiga chiqibdi.

— Kimsan, kasb-koring nima? — deb so‘rabdi sarkarda.

— Baxshiman, — deb javob beribdi u.

— Baxshi bo‘lsang, yaxshi odam ekansan. Qo‘lingdagi do‘mbirang bilan bir zumda meni ham kuldirib, ham yig‘lata olsang, seni omon qoldirib, yurtingni qamal qilishni to‘xtataman-da, orqamga qaytib ketaman. Buning uddasidan chiqa olmasang, teringni shilib, tanangni dorga torttiranman. Shahring kulini ko‘kka sovurib, yer bilan yakson etaman, — debdi.

Baxshi yigit rozi bo‘libdi. Chunki baxshining o‘zi ham, do‘mbirasi ham tobida ekan-da! U do‘mbirasiga qarab: «Tulporim, kuchingni ko‘rsat, shunday sayraki, kulgudan buning ichagi uzilsin, yig‘idan ko‘zi yumilsin», debdi-da, qulog‘ini buray boshlabdi.

Do‘mbira shu yerning tutidan qilingan emasmi, baxshi yigitning so‘zini «ma‘qullaganday» popugini silkitib, «sayray» ketibdi. Qo‘shiqni shunday aytibdiki, tog‘lar, yer tebranibdi, dov-daraxtlar silkinibdi. Bir payt bosqinchi lashkarboshining ko‘zidan yoshi shashqator oqib:

— Bo‘ldi, bas qil, yuragimni ezib yubording! — deb uni zo‘rg‘a to‘xtata olibdi.

Baxshi yigit do‘mbira chertib, qo‘shiq aytishdan to‘xtabdi. Keyin yana qo‘shiq boshlabdi. Avjiga chiqqanda, dushman boshlig‘ining kulgidan ichaklari uzilay-uzilay debdi. Hamma hayron emish. Negaki, sarkarda umrida bunaqangi ahvolga tushmagan ekan-da, ya‘ni bir zumda ham yig‘lab, ham kulmagan ekan-da!

Sarkarda o‘ziga kelib:

— Ko‘p joylarni qilich kuchi bilan zabt etdim. Ammo seni zabt eta olmadim, qo‘shig‘ing taslim etdi. Men niyatimdan qaytdim. Izimga qaytaman. Ammo bir iltimos qilsam, yo‘q demaysanmi? — debdi.

— Ayting, — debdi baxshi yigit.

— Men bilan ketsang, o‘ng qo‘l vazirim qilib olaman. Butun umring rohat-farog‘atda o‘tadi, — debdi sarkarda.

— Yo‘q, men shu yerda tug‘ildim, shu joyda o‘laman, — debdi baxshi.

Shunday qilib, baxshi yigitning do‘mbirasi bilan qo‘shig‘i Toshkent qal‘asini xonavayron, elini talon-toroj bo‘lishidan saqlab qolgan ekan.



«San‘at — tinchlik elchisidir». *Musavvir Ortiqali Qozoqov asari.*

- ⊙ Kompozitor Avaz Mansurovning «Qorboʻron» musiqasini tinglang va uning mazmunini gapirib bering.



QORBOʻRON

M. Abdushukurova sheʼri

A. Mansurov musiqasi

A musical score for the song 'Qorboʻron'. It consists of two systems of music. The first system has a treble clef on the top staff and a bass clef on the bottom staff. The second system has a treble clef on the top staff and a bass clef on the bottom staff. The music is written in a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C). There are trills (tr) and a grace note (gr) indicated in the score.

Zar - ra - zar - ra, zar - rin qor, shosh - ma, sen - da ar - zim

mf

bor. Zar - ra - zar - ra, zar - rin qor, shosh - ma. sen - da ar - zim

bor. Ha - de - may kel - sa bo' - ron

qo'r - bo' - ron o'y - nay tak bor. Ha - de - may kel - sa bo' - ron,

II.

qor - bo' - ron o'y - nay tak - ror.

2.3 Ikkisi

Qor - bo' - ro - nu qor - bo' - ron.

so - la - san bun - cha su - ron

Chin - dan bo'l - sang pah - la - von, bel - la - shay - lik, qor - bo' - ron

2 1

Lya lya - lya - lya - lya - lya, lya - lya - lya - lya

2 1

lya - lya - lya - lya - lya - lya hey

⌘ Tamomlash uchun

Rahmat: — Zarra-zarra, zarrin qor,
Shoshma, senda arzim b6r.
Hademay kelsa Bo'ron,
Qorbo'ron o'ynay takror.

Bo'ron: — Uchib keldim, mana men,
Qani, ko'rsat kuchingni!
Chang'ida uch, chana min,
Qor otib, ol «o'chingni».


Naqarot:

Ikkisi: — Qorbo'ronu qorbo'ron,
Solasan buncha suron.
Chindan bo'lsang pahlavon,
Bellashaylik, qorbo'ron!


Rahmat: — Ko'p maqtanma, sen Bo'ron,
Menga teng kelolmaysan.
Men boshlasam o'yinni —
Bosh ko'tara olmaysan.

▲ **Aytim. Mashqlarni bajaring.**

a)



b)



△ «Biz askarmiz» qo'shig'ini 4/4 o'lchoviga dirijyorlik qilib, notalar bilan ayting. Keyingi bosqichda she'riy bandlari va naqaroti bilan bog'lab kuylang.

BIZ ASKARMIZ

I. Rahmon she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi







Biz as - kar - miz pos - bon - miz U - lug' yo'l - da kar - von - miz



Tinch - lik u - chun qal - qon - miz hech bu - zil - mas qo'r - g'on - miz



Biz as - kar - miz pos - bon - miz U - lug' yo'l - da kar - von - miz.




Biz askarmiz, posbonmiz,
Ulug' yo'lda karvonmiz.
Tinchlik uchun qalqonmiz,
Hech buzilmas qo'rg'onmiz.

Naqarot:


Bir, ikki, uch, bir, ikki...
Ayting, marra kimniki?
Albat marra bizniki.
Jasur o'g'lon, qizniki.

Ona yurt Turkiston!
Yeru osmon, ummonda
Chiniqishni qo'ymaymiz,
Tinchlik kuyin kuylaymiz.

 Quyidagi misolni 2/4 o'lchoviga dirijyorlik qilib, o'qituvchingiz yordamida kuylang.

QARINAVO

M.M. $\text{♩} = 144-152$




? Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi nota misollarining takt o'lchovlarini aniqlang:



2. Berilgan tovushqatorning qaysi pardalari orasida yarim ton oralig'i borligini aniqlang.



3. «Biz askarmiz» qo'shig'ini 4/4 takt o'lchoviga dirijyorlik qilib, notalar bilan kuylang.

4. Qo'shning she'riy matnini yod oling.



Mustaqil o'qing

Nay sadosi

Sulton Husayn Boyqaro ko'p vaqtini ovda o'tkazarkan. Kunlardan bir kun u shikorda juda charchabdi. Chodiriga qaytib: «Men uxlamochiman!» — debdi. Hech kim churq etmabdi. «Men



«Nay navosi». *Musavvir Sa'dulla Abdullayev.*

uxlamoqchiman!» — debdi yana. Hech kimdan sado chiqmabdi. «Men uxlamoqchiman!» — debdi tag'in Husayn Boyqaro. A'yonlariyu mulozimlari u yoq-bu yoqqa yugurib sharob keltirishibdi, qaytaribdi, kanizlardan kiritishibdi, sulton haydab chiqaribdi. Sardorlar sultonni uxlatamiz, deb o'zlarini o'tga-cho'qqa urishibdi, ammo qo'llaridan hech narsa kelmabdi. Sulton g'azablanib qahr otiga minibdi-da, qaytgunimcha chorasini topmasalaring, hammangni dorga osaman, deb yana shikorga chiqib ketibdi. Vazirlar o'ylab-o'ylab, bu muammoni hazrati Navoiydan bo'lak kishi yecholmaydi, deb shoirga chopar yuboribdilar. Navoiy yumushlarim ko'p deb, ovga chiqmagan ekan. Chopar borib Navoiyga bor gapni aytibdi. Navoiy gap nimadaligini darrov tushunib, Naychi bobo degan mashhur naychini o'zi bilan birga olib, Husayn Boyqaro yoniga jo'nabdi. Ovxona o'rtasiga qurilgan «Sulton o'tov»ga naychini kiritib yuborib, o'zi boshqa bir o'tovga tushibdi. Naychini ko'rgan Husayn Boyqaro xursand bo'lib ketib:



«Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro». *Musavvir Sa'dulla Abdullayev.*

— Men sevgan kuyni chaling, bir orom olay, juda toliqdim, — debdi.

Nay tilga kirib biram bo'zlabdiki, sulton uyquga ketganini ham bilmay qolibdi. Tong otish oldidan nay yana xonish qilibdi. Sulton kayfiyati tetik uyg'onibdi. Xizmatkorlaridan birovini yo'qlatib so'rabdi:

— Nay ovozi bilan uxlab, nay ovozi bilan uyg'onishimni kim topdi? Ayt, bosh to'lovi beraman.

— Mavlono Navoiy, — deb javob beribdi xizmatkor.

— Do'stim Alisher? Qani u, tez kelsin, — debdi sulton Husayn shodligi ichiga sig'may.

Sulton yasovullari Navoiyga bu xabarni yetkazib, Husayn Boyqaro huzuriga chorlayotganini aytibdilar.

— Ofarin! Tasanno! Kechasiyu kunduzi oromim o'zingizsiz, do'stim, — deb Husayn Boyqaro Navoiyni izzat-ikrom bilan qarshi olibdi.

6—7-DARSLAR. RAMAZON MAROSIMI AYTIMLARI

Ramazon marosimi hijriy-qamariy (oy) taqvimida muborak Ramazon oyining uchinchi kunidan boshlab kattalar yoki bolalar ishtirokida o'tkaziladi. Bunda marosim ishtirokchilari bo'lgan ramazonchilar xufton vaqtida har bir xonadon eshigi oldida to'planishib, «Ramazon» yoki «Yo, Ramazon» aytimini kuylashadi va bunga javoban uy egalaridan turli pishiriq va hadya-ehsonlar olishadi. Xilma-xil ko'rinishlarda mavjud bo'lgan Ramazon aytimlari mazmunan o'zaro yaqin bo'ladi. Jumladan, ularning she'riy to'rtliklarida xonadon egalariga nisbatan yaxshi istak va ezgu niyatlar bildiriladi, ba'zan esa hazil-mutoyiba mazmunli bandlar ham kuylanadi.

⊙ O'qituvchingiz ijrosida ramazon aytimini tinglang.

O'rtacha tez

O' - ra - za - ning uch ku - ni - ni tu - tib kel - dik siz - ga

O' - ra - za - ning za - ko - ti - ni be - ring biz - ga

Yo ra - ma - zon ay - tib kel - dik e - shi - gin - giz - ga,

Qo'ch - qor - dek o' - g'il ber - sin be - shi - gin - giz - ga

Sa - lom ay - ting Mu - ham - mad Mus - ta - fo - ga, Sa - lom ay - ting








A - li - she - ri Xu - do - ga.

△ Takroriy kuylash. «Nisholda qo‘shig‘i»ni dastlab notalar bilan, so‘ng so‘zlari bilan kuylang.

NISHOLDA

R. Tolib she‘ri

D. Omonullayeva musiqasi



To‘yda, bayramda,
Ro‘za ayyomda,
Tansiq nisholda,
Tortiq nisholda.

Muzqaymoqdan zo‘r,
Mana yalab ko‘r,
Oh-oh nisholda,
Oppoq nisholda.

Naqarot:

Mazali, totli — oh!
Misli novvotli — oh!
Oh-oh nisholda,
Oppoq nisholda.


Muzqaymoqdan zo'r — oh!
Mana, yalab ko'r — oh!
Oh-oh nisholda,
Qaymoq nisholda.

Naqarot:

Buncha ham shirin,
Kim bilar sirin?
Oh-oh nisholda,
Qaymoq nisholda.


Mehmonga yuzim,
Xizmatda o'zim.
Tayyor nisholda,
Mador nisholda.

Naqarot.

 Notaga qarab kuylang.

GANJI QORABOG'

Mi-minor



? Savol va topshiriqlar

1. «Nisholda» qo'shig'ining asosiy tayanch pardasini aniqlang.
2. «Nisholda» qo'shig'ining «c» takt o'lchoviga qanday dirijyorlik qilish kerak?
3. «Biz askarmiz» qo'shig'ini yoddan kuylang.

8—9-DARSLAR. NAVRO‘Z BAYRAMI QO‘SHIQLARI

Go‘zal bahorni bayram fasli deb ataydilar. Chunki bu faslda Navro‘z, ya‘ni yangi yil bayrami keng nishonlanadi. Navro‘z bayramida qo‘shiq-yallalar kuylanadi, o‘lan-aytishuvlar va turli xil qiziqarli o‘yinlar o‘tkaziladi. Shuningdek, bu bayramda ko‘klam o‘simliklari unib chiqishi munosabati bilan aytiladigan alohida qo‘shiqlar ham mavjud. Masalan, boychechak va binafshalarning ochilishi shodlik tuyg‘ulariga sabab bo‘lgan va bu tuyg‘ular maxsus aytimlarda o‘z ifodasini topgan. Bu holatni,



jumladan, boychechak haqidagi qo‘shiqlarda his etamiz. Boychechak Navro‘zning darakchisi hisoblangan, chunki uning unib-o‘tib chiqishi Navro‘z kuniga to‘g‘ri keladi. Shu bois boychechakni qir-adirlardan topib kelib, u haqda shodlik qo‘shig‘ini uyma-uy yurib kuylaganlar va shu tarzda bu xushxabarni qo‘ni-qo‘shni, mahalla ahliga yetkazganlar.

⊙ «Boychechak» qo‘shig‘i.



Boy - che - cha - gim bog‘ - lan - di, qo - zon to‘ - la ay - ron - di,



ay - ro - ning - dan ber - ma - sang, qo - zon - la - ring vay - ron - dir.




qat - tiq yer - dan qaz - lab chiq - qan boy - che - chak, yum - shoq yer - dan

yu - gu - rib chiq - qan boy - che - chak. Boy - che - chak - ni tut - di - lar,
 tut yo - g'och - ga os - di - lar, qi - lich bi - lan
 chop - di - lar bax - mal bi - lan yop - di - lar.

Navro'z kunlari shodlik tuyg'ularini ifoda etuvchi cholg'u kuylari ham ijro etilgan. Ana shunday ko'hna kuylarning ayrimlari bizning davrgacha yetib kelgan. Xususan, «Navro'zi Ajam», «Ajam» taronalari singari kuylar shular jumlasidandir.

⊙ «Navro'zi Ajam» kuyini tinglang.



GUL TUTAMAN, ONAJON

X. Qayumov she'ri

E. Shvars musiqasi

Qut - lug' bo'l - sin bay - ra - min - giz

o - na - jon, o - na - jon! Siz - ga shod -

lik, baxt ti - lay - man, bir ja - hon - bir ja -


hon! Siz - ga shod - lik, baxt ti - lay -

man bir ja - hon - bir ja - hon hon!

Qutlug' bo'lsin bayramingiz,
Onajon-onajon!
Sizga shodlik, baxt tilayman,
Bir jahon-bir jahon!


Quyosh bo'lib yo'lingizga,
Nur to'shay-nur to'shay.
Bahor bo'lib qo'lingizga
Gul tutay-gul tutay.

Qutlug' bo'lsin bayramingiz,
Onajon-onajon!
Sizga shodlik, baxt tilayman,
Bir jahon-bir jahon!

 **Notaga qarab kuylang.**

CHAMANDAGUL

O'zbek xalq qo'shig'i



Cha - man - da - gul o - chi - lib - di - yo cha - kan - ga taq,
cha - kan - ga. Biz - ning hov - li yo' - lin - giz
chin - ni bax - mal to' - nin - giz, Cha - man - da - gul
o - chi - lib - di - yo cha - kan - ga, taq, cha - kan - ga.

? *Savol va topshiriqlar*

1. Navro'z bayrami haqida qanday qo'shiqlarni bilasiz?
2. «Chamandagul» qo'shig'ining 6/8 takt o'lchoviga qanday dirijyorlik qilish kerak? (O'ng qo'l harakatida ko'rsating.)
3. «Gul tutaman, onajon» qo'shig'ini yod oling.

TO'RTINCHI CHORAK BAHOR FASLI QO'SHIQLARI

1—2-DARSLAR. BAHOR FASLI QO'SHIQLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Mavsum qo'shiqlari orasida go'zal bahor fasliga bag'ishlangan xalq aytimlari alohida o'rin tutadi.

Tabiatning uyg'onish davri bo'lgan bahor chog'i lolayu gullarning ochilishi, butun borliqning chamanzorlar tusini olishi, sayroqi qushlarning chamanzorlar ichra yoqimli xonishlari kattayu kichik qalbiga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi, olam-olam quvonch va zavq bag'ishlaydi. Bu kabi go'zal manzaralar xalqimizning shoirta'b iste'dodli vakillari tomonidan to'qilgan ko'plab she'r va qo'shiqlarida tarannum etilgan. Jumladan, «Bahor keldi» xalq qo'shig'ida bu faslning betakror tarovati shunday vafsf qilinadi.



△ «Bahor keldi». Xalq qo'shig'i.

Shoshilmay

Ba - hor kel - di o - chil - di, gul - lar har yon - da.

Bul - bul - lar say - ra - sha - di, u yon - bu yon - da.

Bahor keldi ochildi,
Gullar har yonda,
Bulbullar sayrashadi,
U yon, bu yonda.

Toshdan toshga echkilar,
Sakrab o'ynaydi.
Tog' bag'rida qo'zilar,
O'tlab ma'raydi.


Tog'dan ko'lga tiniq suv
Tushdi shildirab,
Ko'l ichida suv to'la,
Turar miltillab.

△ «Bahor keldi» qo'shig'ini kuylashni o'rganing.

Go'zal bahor manzaralari bastakorlarimiz ijod etgan kuy va qo'shiqlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, xalqimizning sevimli san'atkori Yunus Rajabiy ijodiga mansub «Bahorim» kuyida ko'rkam fasl ila uyg'ongan nafis tuyg'ular ifodasi his etiladi.


BAHORIM

Yu. Rajabiy musiqasi



Fa-major.

Fa-major — bu asosiy tayanch pardasi (tonikasi) «fa» bo'lgan major tonalligi bo'lib, uning kalitoldiga bitta si-bemol belgisi qo'yiladi.



Fa-majorning turg'un tovushlari I, III va V bosqichlarda, noturg'unlari II, IV, VI va VII bosqichlarda joylashadi. Yarim tonlar *lya* va *si-bemol* (III—IV) hamda *mi* va *fa* (VII—I b.) tovushlari oralig'ida yuzaga keladi.

? **Savol va topshiriqlar**

1. Bahor fasliga atalgan qanday qo'shiqlarni bilasiz?
2. «Bahor keldi» qo'shig'ining asosiy tayanch pardasini aniqlang.
3. Qo'shiqni nota daftaringizga ko'chirib, she'rini yod oling.

3—4-DARSLAR. BOLALAR XALQ QO'SHIQLARI

Uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan bolalar qo'shiqlari o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ularda yosh avlodning jo'shqin hayoti, yil fasllari va turli bayramlarga munosabati o'ziga xos ifoda etiladi.

Bolalar qo'shiqlarining ko'pchiligi o'yin bilan yoki o'yin vaziyatida aytilgan. Jumladan, bahor faslida kuylangan «Binafsha», «Chittigul», «Yomg'ir yog'aloq», «Laylak keldi» singari qo'shiqlar shular jumlasini tashkil etadi. Masalan, bahor chog'i yomg'ir shivalab yog'arkan, shu fursatda quvongan bolalar o'yinga berilib, mutoyiba ila «Yomg'ir yog'aloq» qo'shig'ini kuylaydilar.

YOMG'IR YOG'ALOQ

Yom - g'ir yo - g'a - loq, yam - ya - shil o't - loq, en - di
 e - kin - lar chi - qa - rar qu - loq yash - na - sin da -
 la o - chil - sin lo - la, da - la qo'y - ni -
 da oq - sin sha - lo - la.

Yomg'ir yog'aloq
Yam-yashil o'tloq,
Endi ekinlar
Chiqarar quloq.

Naqarot:

Yashnasin dala,
Ochilsin lola.
Dala qo'ynida,
Oqsin shalola.

Tarnovdan toshib,
Oqadi shoshib.
Ariqlar to'lar
Zo'r anhor bo'lib.

Naqarot.

«Binafsha» va «Boychechak»larning unib-o'sishi ham bolalarning quvna b o'ynashlari va qo'shiq kuylashlariga sabab bo'lgan.

BINAFSHA

Bi - naf - sha - lar o - chil - di, yer - ga bo - dom so - chil - di,
ul bo - dom - ni ter - gun - cha, qo - ra ko' - zim te - shil - di.

△ «Gullar manim kulganim» qo'shig'ini kuylashga o'rganing.

GULLAR MANIM KULGANIM

P. Mo'min she'ri

N. Norxo'jayev musiqasi

Bo'l-sin de-ya el cha-man, bo-g'im-ga gul e-ka-man.
Kul-gan bax-tu yosh-li-gim, gul-sha-nim-da er-ka-man.

Gul-sha-nim-da er-ka-man. Gul-sha-nim,
 ho, gul-sha-nim, gul-lar ma-nim kul-ga-nim.

Bo'lsin deya el chaman,
 Bog'imga gul ekaman.
 Kulgan baxtu yoshligim,
 Gulshanimda erkaman.

Gulshanim yurt qiyosi,
 Kulganim dil ziyosi,
 Bog'im tutash bog'larga
 Gulim mehnat jilosi.

Gulshanim, ho, gulshanim,
 Gullar manim kulganim.

Gulshanim, ho, gulshanim,
 Gullar manim kulganim.

Tole to'la kunlarim,
 Ko'ksimdadir qo'llarim,
 Keling sayru chamanga
 Yana kulgay gullarim.

Gulshanim, ho, gulshanim,
 Gullar manim kulganim.

Notaga qarab kuylang.

CHILDİRMA

D. Omonullayeva musiqasi

Fa-major



Savol va topshiriqlar

1. «Childirma» kuyining 6/8 takt o'lchoviga qanday dirijyorlik qilinadi? (O'ng qo'lda ko'rsating.)
2. «Gullar manim kulganim» qo'shig'ini nota daftaringizga ko'chirib, she'rini yod oling.

5—6-DARSLAR. BAHOR ELCHILARI HAQIDA QO'SHIQLAR



Ma'lumki, xalqimiz qadimdan laylak, turna, qaldirg'och kabi qushlarni bahor elchilari sifatida e'zozlab keladi. Chunki bu qushlarning uchib kelishi yaxshi kunlardan «darak» bergan. Masalan, erta bahorda laylakni ko'rish baxtdan nishona deyilsa, laylak uchib kelgan tomondan ko'ringan odam qishloqqa qut-baraka keltiradi, deb e'tiqod qilingan. Chunonchi, barvaqt uchib kelgan turna erta bahorni daraklasa, pastlab uchgan turna rizq-ro'z unumli bo'lishini anglatgan va h.k.¹.

¹ Navro'z. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, M. Jo'rayev. Toshkent. Fan. 1992, 85—90-b.

ARG'AMCHI

Naqarot

O'zbek xalq qo'shig'i

Ar - g'am - chi, gi - lam - chi, ar - g'am - chi - gi - lam - chi,
Tur - na de - sam tu - rum - li, keng da - la - ga qo' - num - li.
Tur - na - lar uch - sa past - lab riz - qing ke - lar u - num - li.
Ar - g'am - chi, gi - lam - chi, ar - g'am - chi, gi - lam - chi.

Bolalar qushlarning uchib kelishini intizorlik bilan kutishgan. Chunki qushlar issiq kunlar boshlanishining «xabarchisi» hamdir. Shu bois, masalan, laylak uchib kelganini ko'rgan bolalar «Laylak keldi» qo'shig'ini kuylashgan va bu haqda kattalarni ham xabardor etishga oshiqqanlar:

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi.
Dala-dashtlar qulf urib,
Daryo bo'yi soz bo'ldi...

Goho xo'rozlarning qo'ng'iroqdek ovozlari ham bolalarning zavqlanishiga sabab bo'lib, ular xo'rozlarning «qu-qu»lashiga taqlid eta boshlaganlar. Shu tarzda xo'roz haqida qo'shiqlar yuzaga kelgan.

△ «Qichqir xo'rozim» bolalar xalq qo'shig'ini kuylang.

Qich - qir xo' - ro - zim, qich - qir xo' - ro - zim
bo - la - lar uy - g'on - sin, hey! Bog' - lar o'r - mon,

Qichqir xo'rozim, qichqir xo'rozim,
Bolalar uyg'onsin.
Bog'lar, o'rmon, tepalarda
Lolalar ochilsin.

Qichqir xo'rozim, qichqir xo'rozim,
Tonglar yorishsin.
Tong havosi, quyoshidan
Bolalar quvonsin.

Re-minor.

Re-minor — asosiy tayanch pardasi (tonikasi) «re» bo'lgan minor tonalligi bo'lib, kalitoldida bitta si-bemol belgisi bor.

Misol:

Re-minorning turg'un tovushlari I, III va V bosqichlarda joylashadi (re-fa-lya). Qolgan bosqich (II, IV, VI va VII) tovushlari (mi, sol, si-bemol, do) noturg'undir.



Mustaqil o'qing.

Bulbul bilan to'rg'ay

To'rg'ay aslida so'fi ekan. Bir paytlar Xudoga shak keltirgani uchun To'rg'ayga aylantirilgan ekan. To'rg'ay, Bulbul aslida odam

zotidan bo'lib, bir-birlari bilan qalin do'st, oshna-og'ayni ekan. Xudoyi taolo ularni qo'shiq aytirib, musobaqa qildiribdi. «Kimda-kim ko'p va xo'b kuy va qo'shiq aytsa, el orasida qoladi, kuy-qo'shig'ini bog'u rog'larda aytadigan bo'ladi, yengilgani cho'lu biyobonga chiqib ketib, u yerda bo'zlab o'tadi», — debdi u.

Shundan keyin Bulbul bilan To'rg'ay navbatma-navbat kuy kuylab, qo'shiq ayta boshlashibdi. Bulbul ming bittaga yetkazibdi. To'rg'ay bo'lsa mingtaga yetkaza olibdi. Shunda Xudoyi taolo:

— Bulbul, sening makoning shu yerda, odamlar orasida bo'lsin, bog'-rog'larda kuylab yuraver. To'rg'ay, sening makoning esa cho'l bo'lsin, to mahshar kunigacha u yerlarda bo'zlab yuravergin, — debdi.

Shu-shu Bulbul gullar orasida, bog'-rog'lar ichida ishq-muhabbat, vafo va sadoqatdan kuylasa, To'rg'ay cho'lu biyobonlarda alamidan bo'zlagani bo'zlagan emish...

(«O'zbek asotirlari, hikmatlari, rivoyatlari» kitobidan.)

△ Notaga qarab kuylang.

BULBULCHA

M. Qo'shoqov she'ri

M. Nasimov musiqasi

O' - zing kich - ki - na o - vo - zing yax - shi

Qa - ni, bul - bul cham bir say - rab ber - chi.

Qa - ni bul - bul - cham bir say - rab ber - chi.

May - li, o' r - toq - jon May - li, say - ray - man

Ko' m - ko' k bo - g'ing - da u - chib yay - ray - man.

— O‘zing kichkina
Ovozing yaxshi.
Qani, bulbulcham,
Bir sayrab boq-chi

— Shirin bubulcham
Kuylover chaq-chaq.
Tinglab qo‘shig‘ing
Dillar xushchaqchaq.

— Mayli, o‘rtoqjon,
Mayli, sayrayman.
Ko‘m-ko‘k bog‘ingda
Uchib yayrayman.

— Mehnat qilibsana,
Ekibsana gullar.
Gulni sevamiz
Bizlar — bulbullar.

? Savol va topshiriqlar

1. Qushlar haqida qanday qo‘shiqlarni bilasiz?
2. Re-minor tonalligida yarim tonlar qaysi tovushlar orasida kelishini aniqlang.
3. «Qichqir xo‘rozim» qo‘shig‘ining asosiy tayanch pardasini aniqlang.
4. Qo‘shiqni yod oling.

7—8-DARSLAR. LOLA HAQIDA QO‘SHIQLAR

Bahor faslida qir-adirlarda lola gullari ochilib, tabiat manzaralari yanada go‘zal tus oladi. Shunday damlarda xalqimiz lola sayli bayramini o‘tkazib kelgan. Yoshlar, o‘spirin bolalar qir-adirlarga sayr qilishib, quchoq-quchoq lola terishgan, so‘ngra ularni qo‘ni-qo‘shnilariga, qarindosh-urug‘lariga ulashishgan hamda lola haqida qo‘shiqlar kuylab, turli o‘yinlar o‘tkazishgan.

⊙ «Lola». Xalq qo‘shig‘i

Lo - la lo - la lo - la - jon o' - sar jo - ying da - la - da,

Lo - la lo - la lo - la - jon chi - da - ding - mi ja - la - ga,
 yur sa - yli - ga bo - ray - lik, lo - la - lar - ni ko' - ray - lik,
 qu - cho - g'i - miz to'l - di - rib, lo - la gul - lar te - ray - lik.




▲ Aytim mashqlarini bajaring.

a)


b)

△ «Hey, lola» xalq qo‘shig‘ini kuylashga o‘rganing.


HEY, LOLA




Lo - la - cha - ga i - shim bor, hey, lo - la.



Kis - sam - da kish - mi - shim bor, hey, lo - la.



Kish - mish bo‘l - sa may - li - ga hey lo - la /yo/,



Qiz bo - la - da i - shim bor, hey lo - la.

Tom ustida piyola, hey, lola,
Ichi to‘la gul-lola, hey, lola.
2-m { Nari turing bo‘z bola, hey, lola,
Uyaladi qiz bola, hey, lola.

Lola o‘zi qiz bola, hey, lola,
Qirda o‘sgan qiz bola, hey, lola,
2-m { Lolachani ko‘rganda, hey, lola,
Sanab, sanab uz bola, hey, lola.

⊙ Musiqa tinglash.

QORABAYIR

A. Po'lat she'ri

F. Sodiqov musiqasi

Chor - va - miz - ning
sav - la - ti - dur, qo - ra ba - yir o - ti - miz, yil - qi - miz - ning
chi - ro - yi - dur, bu - kil - mas qa - no - ti - miz.
Er - ka - la - nib kish - na - gan - da
ja - rang - lar da - la, tog' - lar jan - ga - vor - lik
xis - la - ti ko'p, Meh - nat - da ko'n - gil chog' lar,
meh - nat - da ko'n - gil chog' lar. oh, jon tul - po - ri
miz
Ye - li - shi ga

teng ke - lol - mas hat - to ko'k - da bur - gut - lar,
 qil - gan i - shi el - ga man - zur, maq - to - vi bor
 bir daf - tar. Har kun u - ni er - ka - la - tib
 yol - la - ri - ni ta - ray - man, men o - tim - ga
 me - hr qo' - yib ham - ro - him deb qa - ray - man.
 Ham - ro - him deb qa - ray - man. Oh, jon tul - po - ri - miz.



Faxriddin Sodiqov

Qorabayir — O'zbekistonda yetishtiriladigan ot zoti bo'lib, undan salt minishda hamda aravaga qo'shib yuk tashishda foydalaniladi. Atoqli san'atkor Faxriddin Sodiqovning (1914—1977, Toshkent) shoir Akmal Po'lat she'riga bastalagan «Qorabayir» qo'shig'ida dehqonlarimizning og'irini yengil qilishga xizmat qilib kelayotgan ana shunday otlar vasf etiladi. Qo'shiqning cholg'u asboblari ijro etiladigan kirish qismi va naqarotlari chavandozning mardonavor yurishini, she'riy bandlarning kuy-ohanglari esa keng dalalarni va ularda yelib-yugurayotgan otlarni tasvirlaydi. Bunday sermazmun musiqani ijod etishda F. Sodiqovning

bastakorlik iste'dodi hamda chang va dutor cholg'ularini mukammal bilganligi muhim bo'lgan. Bu fazilat bastakorning yana boshqa ko'plab asarlarida ham namoyon bo'ladi. Xususan, ustaning «O'zbekcha vals», «Vatan marshi», «Qurilish marshi» cholg'u kuylari, «O'zbekiston», «To'y muborak», «Dutorim», «Bir go'zal», «Tinchlik qo'shig'i», «Shirmonoy», «Zarafshon» kabi qo'shiq va ashulalari milliy musiqa xazinamizdan munosib o'rin olgan.

△ «Yoz yaxshi»

YOZ YAXSHI

P. Mo'min she'ri

D. Zokirov musiqasi

Moderato

Yoz ke - zar yash - na - gan e - lim -
Qush - la - rim say - ra - shar, qay - na -
da, yoz zav - qi ti - lim - da,
shar, bu - loq - lar shi - vir - lar
di - shil - dilim - da. rar.
Yoz yax - shi, yoz yax - shi,
shi, yoz yax - shi, yoz yax - shi!

Yoz kezar yashnagan elimda,
Yoz zavqi tilimda, dilimda.
Qushlarim sayrashar, qaynashar,
Buloqlar shivirlar, shildirar:
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!

Quyoshday mehnatim qudrati,
Pahlavon xalqimning sur'ati,
Yurtimni bezagan, qaranglar,
Yoz kuyi har yonda jaranglar:
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!






Bog'larim shifobaxsh mevasi,
Ming turda gullarim jilvasi,
Bepoyon paxtazor paykallar,
Hosildan mavj urib chayqalar:
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!

Yozimning issig'i va nuri,
Jonimning halovat, huzuri,
Aylaymiz sayri bog', sayri bog',
Ishladik, dam oldik, ko'ngil chog'.
Yoz yaxshi, yoz yaxshi, yoz yaxshi!

 Notaga qarab kuylang.

OZODA QIZ QO'SHIG'I

X. Po'latov musiqasi



? Savol va topshiriqlar

1. 6/8 takt o'lchoviga qay tarzda dirijyorlik qilinishini o'ng qo'lingiz bilan ko'rsating.
2. Bu belgilarning ma'nosini tushuntirib bering, #, b, q.
3. Major tonalligida yarim tonlar qaysi tovush bosqichlari orasida yuzaga keladi?
4. Minor tonalligida yarim tonlar qaysi tovush bosqichlari orasida yuzaga keladi?
5. «Hey, lola» qo'shig'ini yod oling.

MUSIQA LUG'ATI

Aytm — ovozda kuylash, aytish uchun mo'ljallangan barcha musiqiy namunalarning umumlashma nomi.

Afg'on rubobi — torli-chertma cholg'u bo'lib, u mezrob (mediator) vositasida chalinadi. Uning kosasi chuqur o'yilgan va teri bilan qoplangan bo'ladi, kalta va yo'g'on dastasida to'rtta bog'lama pardasi bor. Dastasining yuqori qismida 6 yoki 7 ta qo'shimcha («xas») pardalari ham bo'ladi. Afg'on rubobining 5 ta asosiy torlarida kuy chalinadi. Shuningdek, uning yon tomonidan 10—11 ta yordamchi yonquloq simlari ham tortilgan bo'lib, ular aks-sado sifatida yangraydi.

Bastakor (*fors. toj.* — basta — bog'lov, kor — ish) — ma'lum parda va kuy-ohanglariga turli xil doyra usullari va so'z (g'azal)larni bog'lab, ashula, qo'shiq kabi asarlarni ijod etuvchi sozanda (yoki xonanda).

Bulamoni — tut daraxtidan ishlangan surnay shaklli cholg'u. Ammo surnaydan hajmi kichik, puflamasi esa sibiziqniki kabi (tilchali) ekanligi bilan farq qiladi.

Doyra (boshgacha nomi — childirma) — zarbli sozining gardishi tok zangidan yoki o'rik, yong'oq yog'ochidan tayyorlanib, bir tomonidan buzoq (yoki kiyik, echki) terisi qoplanadi. Gardishining ichki tomoniga 40 dan ziyod ma'dan halqachalar osiladi. Doyraning gardish tomoni zarb berishidan yuzaga kelgan tovushni «bak» (yoki «tok»), uning o'rta qismidan sadolangan tovushni esa «bum» (yoki «gup») deb yuritadilar.

Dutor — ikki torli chertma cholg'u, tut, o'rik yoki yong'oq daraxtidan tayyorlanadi. Dastagiga 13-14 ta ipakli parda bog'lanadi.

Do'mbira — dutor kabi ikki torli chertma cholg'u bo'lib, ammo dutordan o'ziga xos «bo'g'iq» tovushi, nisbatan qisqa va silliq (parda bog'lanmagan) dastasi kabilar bilan farq qiladi.

Karnay — misdan yasalgan damli (puflama) cholgʻu boʻlib, uzunligi 2 m va undan ham ortiq boʻlishi mumkin. Uning «tirsakli» (siniq chiziqli) koʻrinishi ham mavjud.

Olib yurishda qulay boʻlishi uchun 3 qismga ajraladi. Karnayda barmoqlar bilan bosiladigan teshiklar boʻlmaydi.

Kuchli va yogʻon ovozi boʻlishi pirovardida koʻproq «jar solish», shu jumladan, oʻtmishda harbiylarga axborot uzatish vositasi boʻlib xizmat qilgan. Ansambl tarkibida tantanavor va koʻtarinki kayfiyat tugʻdiradi.

Kompozitor (*lot.* — ijodkor, toʻquvchi, tuzuvchi) — opera, simfoniya, sonata, balet, oratoriya kabi musiqali janrlarda asarlar yozuvchi ijodkor.

Nogʻora — loydan tuvaksimon shaklida yasalib, sopol darajasiga qadar pishiriladi. Kosasi kiyik (yoki boshqa hayvon) terisi bilan qoplanadi. Nogʻoralar hajmiga qarab katta (doʻl nogʻora), oʻrtacha (koʻs nogʻora) va kichik (rez nogʻora) turlariga boʻlinadi. Odatda, koʻs va rez nogʻoralar bir-biriga bogʻlanib, qoʻshnogʻora tarzida toʻy va boshqa ommaviy bayram marosimlarida chalinadi.

Sato — torli-kamonli cholgʻu. Tut daraxtidan oʻyib ishlangan kosasi va uzun dastagi tanburni eslatadi.

Tanbur — torli chertma cholgʻu. Tut yogʻochidan tayyorlanadi. Uzun dastasida 16 tacha bogʻlama pardasi bor. Kosa qopqogʻiga 4 ta choʻp (xas) parda yelimlangan boʻladi. Tanburdagi torlarning soni uchtadan oltitagacha boʻlishi mumkin. Hozirda koʻproq uchtoʻrt simli tanbur qoʻllaniladi. Torlar noxun vositasida chertiladi.

Sibiziq — oddiy qamishdan yasalgan damli cholgʻu. Puflama tomonidan tilcha kesilgan boʻlib, old tomonida barmoqlar bosadigan uchta teshikchasi bor.

Surnay — oʻrik yoki yongʻoq yogʻochidan oʻyib yasaladi. Uning old tomonida yettita, ostida bitta teshikchalari bor. Surnayda raqs kuylari, xalqimiz orasida keng tarqalgan ommaviy ashulalarning kuylari hamda maqomlarning «surnay yoʻllari» ijro etiladi. Ansambl tarkibida ham surnay asosiy kuy yoʻllarini sadolantiradi.

Ud — torli-chertma cholg'ularning eng ko'hnalaridan biri hisoblanadi. U tanbur va dutordan o'zining nok shaklidagi katta kosasi va silliq (parda bog'lamalari bo'lmagan) kalta dastasi bilan ajralib turadi. Ud sozida 11 ta tor bo'lib, shulardan beshtasi qo'shaloq tarzda, bittasi esa quyi yo'g'on tovush o'rnida qo'llaniladi.

Chang — torli-urma soz bo'lib, unda jami 40 ta sim (tor) bo'ladi. Shulardan 13 tasi uchtadan birlashib taqsimlangan holda, bitta simi quyi yo'g'on torga ajraladi. Changning torlari 2 ta cho'p vositasida urib va chertib (tirnab) chalinadi.

Qonun — torli-chertma soz bo'lib, shaklan chang soziga o'xshab ketadi. Ammo, changdan farqli ravishda, yog'och qopqog'ining ma'lum qismi teri bilan qoplangan, uning ustidan xarrak o'rnatilib, 24 ta uchtalik ichak torlari eshiladi.

BILIB QO'YING!

1. Qo'shiq aytayotganda bosh va gavdani to'g'ri tuting.
2. Bir tekis nafas oling. Aytim mashqlari va qo'shiq kuylayotganda nafasni tejab ishlating.
3. Qo'shiqning har bir tovush-pardasini aniq ayting.
4. Qo'shiq so'zlarini aniq talaffuz qiling. Bunda unli tovushlarni cho'zibroq, undosh tovushlarni esa qisqa aytishga harakat qiling.
5. Qo'shiq so'zlarini tushunib, uning ma'nosiga mos ravishda kuylang.
6. Jamoa bo'lib kuylayotganda o'z ovozingiz bilan birga sinfdosh o'rtoqlaringizni ham ovozini tinglab, hamohang aytishga intiling.
7. Qo'shiq kuylayotganda yoki uni o'rganish davomida o'qituvchingiz ko'rsatmalariga rioya qiling.

MUNDARIJA

So'zboshi	3
O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi	4

Birinchi chorak

O'zbek xalq aytim va cholg'ulari

1—2-darlar. Mehnat aytimlari	7
3-dars. Qo'shiq	15
4-dars. Lapar	17
5-dars. Yalla	22
6—7-darlar. O'zbek xalq cholg'ulari	25
8—9-darlar. Damli va zarbli cholg'ular	34

Ikkinchi chorak

Bayram va marosim qo'shiqlari

1-dars. Bayram va marosim musiqasi haqida tushuncha	40
2—3-darlar. Alla aytimlari	44
4—5-darlar. To'y marosimi qo'shiqlari	50
6—7-darlar. Xalq tomoshalari musiqasi	56

Uchinchi chorak

Mavsum qo'shiqlari

1—2-darlar. Mavsum va marosim qo'shiqlari	63
3-dars. Bastakor Komiljon Jabborov	67
4—5-darlar. Baxshi jasorati	70
6—7-darlar. Ramazon marosimi aytimlari	82
8—9-darlar. Navro'z bayrami qo'shiqlari	85

To'rtinchi chorak

Bahor fasli qo'shiqlari

<i>1—2-darstar.</i> Bahor fasli qo'shiqlari haqida tushuncha	89
<i>3—4-darstar.</i> Bolalar xalq qo'shiqlari	91
<i>5—6-darstar.</i> Bahor elchilari haqida qo'shiqlar	94
<i>7—8-darstar.</i> Lola haqida qo'shiqlar	98
Musiqalug'ati A I	106

O.Ibrohimov, J.Ibrohimov, Y.Botirov

MUSIQA

4-sinf uchun darslik

2-nashri

Muharrir *Hikoyat Mahmudova*
Musavvir *Yulay Gabzaliloy*
Badiiy muharrir *Anatoliy Bobrov*
Texnik muharrir *Tatyana Smirnova*
Musahhah *Fotima Ortiqova*
Kompyuterda sahifalovchi *B.Ashurov*

IB 4201

Bosishga 03.02.2004-y. da ruxsat etildi. Bichimi 70x90¹/₁₆. Tayms garnitura kg 13 shponli. Ofset bosma. 8,19 shartli bosma toboq. 9,37 nashr tobog'i. Jami 30000 nusxa.
30-2004 raqamli shartnoma. 47 raqamli buyurtma.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129. Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30. // 700128. Toshkent. Usmon Yusupov ko'chasi, 86.

Maktab kutubxonasi jamg'armasiga kiritilgan. Bepul.